

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK

UMAROVA HILOLAXON ILHOM QIZI

ZULFIYA IJODIDA BADIY NUTQ VA OHANG

5A120101 Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti)

M A G I S T R

**Akademik darajasini olish uchun
yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

**Y.Solijonov
filologiya fanlari doktori, professor**

Farg‘ona – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

BIRINCHI BOB. Badiiy adabiyotda nutq, ohang va uslub muammosi

1.1.Badiiy asarda nutq va ohang masalasi.....	10
1.2. Badiiy nutq va ijodkor uslubi.....	21
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	32

IKKINCHI BOB. Zulfiya ijodida badiiy nutq turlari va shakllari

2.1.Zulfiya she'rlarida monolog va uning badiiy-estetik xususiyatlari.....	32
2.2.Dialogning g'oyaviy-falsafiy mazmunni ifodalashdagi o'rni.....	43
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	53

UCHINCHI BOB. Zulfiya she'riyatida ohangning o'rni

3.1. Lirik qahramon va monologik ohang.....	54
3.2. Zulfiya ijodida ko'povozli ohang.....	65
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	77

UMUMIY XULOSALAR.....78

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....80

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zaruriyati

El – yurt e'zozlagan ijodkor – hamisha barhayot. Adabiyot – ko'ngil mulkining xazinası, uning bir irmog'i bo'lmish she'riyat ko'ngil kechinmalarining o'ta nozik va sirli ifodasi, tasvir etib bo'lmas go'zallikning jozibador aksi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday nozik tuyg'ularni inja tasvirlarda ifoda eta olgan shoira Zulfiya – XX asr o'zbek adabiyotining iste'dodli namoyandalaridan biridir. Shoiraning hayot yo'li ancha murakkab bo'lsa-da, qiyinchilik va mashaqqatlarni yuksak iroda va sabot bilan yengib o'tgan Zulfiya timsoli ibrat namunasidir.

Mamlakatimizda har yili 1-mart sanasi Respublikamizning chekka-chekka qishloqlarida ham nishonlanayotganligi, shuningdek, 1995-yil 80 yilligi, 2015-yil 100 yilligining keng miqyosda nishonlanishi hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi adabiyot, san'at, madaniyat, ta'lim va fan yo'nalishida o'z iqtidori va iste'dodini namoyon etayotgan qizlarga berib kelinayotgani shoira Zulfiyaga berilgan yuksak bahodir, albatta.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Zulfiyaxonim jasoratiga ham alohida to'xtalib o'tadi: "Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni men fidoyi insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin bu murakkab hayot qalbi o'z xalqi va Vataniga mehr-muhabbat bilan to'lib-toshgan, dunyodan ezgulik va go'zallik izlab yashagan bu ayolni hamma vaqt ham ayagani yo'q. Aslida, bu dunyoda ayriliq va hijron azobi barchaning ham boshida bor. Ammo g'am-anduh va hasratlarni matonat bilan yengib, tog'dek bardoshi bilan vafo va sadoqat ramziga aylangan

Zulfiya opa singari ayollar har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir”¹,
– deb ta’kidlagan edilar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2018-yilda Jizzax shahrida shoir Hamid Olimjon hamda uning rafiqasi Zulfiyaxonimga bag‘ishlab qurilgan bog‘ va u yerdagi ularning mahobatli haykali, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktablarining tashkil etilganligi Shoiraning ruhi shod bo‘lishiga yana bir muhim omillardan biri bo‘ldi deb o‘ylayman.

Yuqorida keltirilgan dalillar shoira ijodini o‘rganish, ayniqsa, uning she’riyatida namoyon bo‘lgan badiiy nutq turlari va shakllarining o‘ziga xos ko‘rinishlari, ohangning rang-barangligini tadqiq etish naqadar dolzarb ekanligini isbotlaydi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishimiz Zulfiya ijodiy faoliyatini o‘rganish hamda targ‘ib etish vazifasini bajaradi .

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Jahon adabiyotshunosligida nutq va uslub masalalariga bag‘ishlangan bir qator ishlar qilingan. Xususan, Platon, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy kabi faylasuf va olimlarning ilmiy asarlarida mazkur masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan².

Umuman, badiiy asarda nutq masalasi eng murakkab estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma’noda, badiiy asar tilining ta’sirchanligi, ohangdorligi masalasini o‘rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Olimlarning fikricha, estetik kategoriyalar individual bo‘lganidek badiiy asar tili bilan bog‘liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxsning nutqiy faoliyati mahsulidir. XX asrning 20-yillarida Rossiyada ham badiiy asar tilini o‘rganish bilan bog‘liq juda ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Bu nazariy qarashlarga muvofiq til – badiiy asarda shaklning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Xususan, Y.Tinyanov “She’riy nutq masalalari”, (1926),

¹ Каримов И.А.Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.:Маънавият, 2008.Б.77

² Афлотун. Давлат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015; Арасту.Поэтика.Ахлоқи кабир.Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012; Гегель. Эстетика.Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона. 2011; Белинский В.Г.Статьи о народной поэзии. М.,Художественная литература 1979 С-187

V.Shklovsiy “Proza nazariyasi haqida” (1929), V.Vinogradov “Badiiy proza haqida” (1930), M.Baxtinning “Dastoyevskiy poetikasi muammolar” kabi asarlarida aynan shu masala ko‘tarib chiqilgan. Bundan tashqari, 10 yil davomida «Ruskaya rech» nomi bilan 6 ta yirik ilmiy to‘plam tayyorlab nashr etildi.

O‘zbek adabiyotshunosligida nutq, ohang va uslub masalasiga e‘tibor berish uzoq tarixga borib taqaladi. Xususan, Navoiy, Fitrat, Cho‘lpon, Izzat Sulton, S.Mamajonov, Y.Solijonov, T.Boboyev³ kabi ijodkor va olimlar nutq, ohang va uslub masalasining nazariy asoslari yaratilishiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. A.Rahimov, U.Normatov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, N.V.Vladimirova, D.Quronov, B.Karimov, Q.Yo‘ldosh, S.Mo‘minov, M.Toshtemirov, G.Imomova, G.Ernazarova⁴ kabi olimlar tadqiqotlarida, ilmiy asarlarida ham mavzuga oid qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Ammo badiiy nutq va ohang masalalari adabiyotshunoslikda she‘riyat bo‘yicha juda kam o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, Zulfiya ijodi misolida kamroq o‘rganilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shoira she‘rlaridagi yorqin misralarda o‘z aksini topgan betakror kechinmalar yaxlit bir tizimga solib teran tahlil etishdan iborat. Lirik kechinma tabiatining ochilishi nafaqat o‘tmishdagi, hozirgi she‘riyatimizdagi yetakchi g‘oyaviy badiiy tomonlarini aniqlash, balki o‘zbek she‘riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi. Bu holat ham tadqiqot ishimizning o‘rganilish darajasini belgilaydi.

³ Навоий А. Маҳбуб ул қўлуб – Тошкент: Ғафур Ғўло 1983 Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б. ;Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2006. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.ф.д. дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент:А.Навоий номидаги Ўзбек миллий кутубхонаси нашриёти, 2011 Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002, 85- bet.

⁴ Раҳимов А. Миллий адабиётлар равнақи. – Тошкент: Фан, 1981; Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Normatov U. Ijod sehri. Toshkent 2013; Nazarov B. Qodiriyning qudrati. // Xurshid Davron kutubxonasi 2014 Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Akademya nashr 2017; B.Sarimsoqov, Alisher Navoiy poetic sintaksisidagi bir usul to‘g‘risida.// Xurshid Davron kutubxonasi 2018. Сиддик Мўмин. Нутқ ва ижод услубининг ҳудудий хосланиши. – Тошкент, 1998.; B.Karimov, Yangilanish sog‘inchi . – Toshkent 2004;Vladimirova N. XX asr o‘zbek nasrining rivoji va badiiyy tarjima masalalari. Toshkent 1983;Yo‘ldosh Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent 2017; Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг ўрни. Филол.ф.н.дисс. автореф. – Тошкент, 1993. 24 б.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Zulfiya she'riyati misolida o'zbek she'riyatida badiiy nutq, uning tiplari, lirik qahramon tabiati, uning poetik tasviri, monologik ohang, polifonik ohang kabi masalalarni o'rganish jarayonida, tanlangan mavzu asosida shoiraning ijodiy evalyutsiyasi hamda o'ziga xos idividual jihatlarni ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz:

- Badiiy asarda nutqning o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- badiiy nutqning she'r tug'ilish jarayonidagi o'rni va ahamiyati aniqlanadi;
- Zulfiyaning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan xususiyatlar haqida so'z yuritish;
- Zulfiya ijodini lirik qahramon va monologik ohang tasvir mahorati nuqtayi nazaridan tahlil etib, XX asr o'zbek she'riyatidagi o'rniga baho berish;
- shoirning lirik obrazlari tadrijini ko'rsatish hamda poetik tasvirlash mahoratini yoritib berish;
- lirik qahramonning fikrlash tabiati va badiiy talqin xususiyatlarni ochib berish;
- polifoniyaning o'ziga xos unsurlarini ko'rsatish;

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Bugungi istiqlol davri adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlariga ham yangicha talablar qo'ymoqda. Ana shu yangicha talablardan kelib chiqqan holda, hozirga qadar adabiyotshunoslikda qo'llanib kelingan qiyosiy – tarixiy tahlil, struktural tahlil kabi tadqiqot metodlaridan ijodiy foydalangan holda biz o'z tadqiqotimizda biografik metod usulidan ham foydalanishni nazarda tutamiz.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy- tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona

davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq badiiy nutq muammolari mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot predmeti va obyekti. Tadqiqot ishimizga o'zbek she'riyatining yorqin namayondalaridan biri Zulfiya ijodi asos qilib olingan bo'lib, mazkur ilmiy tadqiqot ishida "Uch jildlik asarlar to'plami"(1985-1986) hamda "Saylanma"si (2006) tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. XX asr o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan iste'dodli shoira Zulfiya ijodi misolida o'zbek she'riyatida badiiy nutq, poetik tasvir, lirik qahramon va ohang muammosi ilk bor monografik yo'nalishda tahlilga tortilgan. Shu bilan bir qatorda, estetik ideal va poetik talqin muammolarining o'ziga xos tadrijiy taraqqiyoti haqida ham so'z yuritiladi.

Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan Oliy o'quv yurtlari hamda maktab, kollej va akademik litseylarda XX asr o'zbek adabiyoti tarixi fanida, Zulfiya ijodini o'rganish masalalariga bag'ishlangan maxsus kurslarda, shu fan doirasida ma'ruzalar, milliy adabiyotimiz o'quv qo'llanmalari, darslik, majmualar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Zulfiya ijodida badiiy nutq va ohang o'rni ilmiy jihatdan yetarli o'rganilgan emas. Mazkur tadqiqotda Zulfiya ijodida badiiy nutq va ohang tadqiq etilib, o'rganib chiqilganligi ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 10 ta ilmiy tezisda o'z ifodasini topgan.

1. Zulfiya ijodining individualizmi//“Filologiyaning dolzarb masalalari”mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari – Farg'ona 2015 yil, 48-50betlar
2. Zulfiya she'riyatida fonetik takrorlar//“Nutq madaniyati va o'zbek tilshunoosligining dolzarb masalalari” O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, filologiya fanlari doktori professor Abdulhamid Nurmonov

- xotirasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon 2015-yil 66-67-betlar
3. Zulfiyaning ko'chimlardan foydalanish mahorati//“Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi internet konferensiyasi – Farg'ona 2016 yil, 173-176 betlar
 4. Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostonining badiiy xususiyatlari // “Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” 3-Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Farg'ona 2017 yil, 366-368 betlar
 5. Zulfiya ijodida ko'povozli ohanglar//“Filologiyaning dolzarb muammolari va kontrastiv tilshunoslik” mavzusidagi xorijiy olimlar ishtirok etgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2-kitob – Farg'ona 2018 yil, 5-7 betlar
 6. Zulfiya she'riyatida nutq badiiy mohiyati//“Filologiyaning dolzarb muammolari va kontrastiv tilshunoslik” mavzusidagi xorijiy olimlar ishtirok etgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2-kitob – Farg'ona 2018 yil, 104-106 betlar
 7. Zulfiya ijodida kontekstual sinonimlar//“Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2-kitob Farg'ona 2018 yil, 256-258 betlar
 8. Zulfiya ijodida okkazionalizm //“Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2-kitob – Farg'ona 2018 yil, 258-260- betlar
 9. Zulfia ijodida metafora//“O'zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari” mavzusidagi an'anaviy Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari – Farg'ona 2018 yil, 104-106 betlar

10. Adabiy aloqalarning Zulfiya ijodiga ta'siri//“Adabiy aloqalar va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari – Farg‘ona 2018 yil, 222-224 betlar

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu dissertatsiya, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 81 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. BADIY ADABIYOTDA NUTQ , OHANG VA USLUB MUAMMOSI

1.1.Badiiy asarda nutq va ohang muammosi

“Ijodkorning asosiy quroli so‘z, nutqdir. Badiiy asarning jozibasi, sermazmunligi va puxtaligi birinchi galda, ijodkor nutqining rang-barangligi, salmog‘i, leksik va semantik boyligi bilan belgilanadi”.⁵

Ijodkorning asosiy quroli so‘z bo‘lar ekan, har qanday adabiy asarni shakllantiruvchisi ham so‘z, badiiy til sanaladi.

Rus filolog olimi G.Vinokur: “Badiiy til deganda, badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi, – deb yozadi. – Ma’lumki, badiiy asarlar yozishda qandaydir alohida tildan emas, balki kundalik muloqotdagi kabi milliy til unsurlaridan foydalaniladi. Avvalo, kundalik muloqot tili ham, badiiy til ham informatsiya yetkazish va informatsiya olishga xizmat qiladi”.⁶ Ammo badiiy til muloqot tili yetkazgan oddiy informatsiyadan farqli o‘laroq, badiiy informatsiya yetkazadi. Shuningdek, badiiy muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Ayni shu o‘rinda Qozoqboy Yo‘ldoshning badiiy til atamasiga alohida ahamiyat berish kerakligi to‘g‘risida bildirgan quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Odatda, bu tushuncha o‘quv va metodik adabiyotlarda “badiiy til”, “poetik til” shaklida qo‘llaniladi. Bizningcha, tushunchani bunday atash unchalik to‘g‘ri emas. Negaki, badiiy adabiyot o‘zining tilini yaratmaydi, u bunday tilga ega ham emas, balki mavjud milliy tildan foydalanadi, uni ishlatadi, xolos. Shu bois, badiiy til deyish o‘rinli bo‘lmaydi. “Poetik til” deyilganda ham til bilan nutqning farqi hisobga olinmaydi”.⁷ Adabiyotshunoslik sohasida Badiiy nutq termini uchun kurashgan insonlar qatorida Y.Solijonov, D.Quronovlarni alohida tilga olish o‘rinlidir. Ular

⁵ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. – Toshkent, 2009. 104- bet.

⁶ Quronov D., Mamajonov Z, .Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademiya nashr, 2013.

⁷ Yo‘ldoshev Q, Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016, 208- bet.

bu masalada Q.Yoʻldosh kabi fikr yuritib, “Badiiy nutq” atamasini yoqlab chiqqanlar.

“Adabiyotshunoslikda «badiiy til», «poetik til», «badiiy adabiyot tili», «badiiy asar tili», «badiiy nutq», «poetik nutq» kabi atamalar juda faol va koʻpincha bir-birining oʻrnida, yaʼni sinonim oʻlaroq qoʻllanilib keladi. Xususan, oʻquv adabiyotlarida shu kabi terminologik anarxiya holati yaqqol koʻzga tashlanadi. Holbuki, aslida, terminlarning qaysi birini qoʻllash masalaga tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilayotganiga bogʻliq boʻlishi lozim”.⁸ Oʻzbek tilidagi manbalarda I.Sulton «badiiy asarning tili» tushunchasini markazga qoʻygan holda u bilan bir qatorda «badiiy til» va «poetik til» atamalarini ham ishlatadi, “Badiiy adabiyot asarining tili bir-biridan sezilarli farq etadigan ikki boʻlakdan - avtor (muallif) nutqi va personajlar nutqidan iboratdir”, - deb biladi.⁹ T.Boboyevda ham “badiiy asar tili” tushunchasi markaziy oʻrin tutgan holda «adabiy asar tili», «badiiy til», «poetik til» atamalari sinonim oʻlaroq ishlatilgan. Shuningdek, «muallif, hikoyachi va personaj tili», «muallif nutqi», «personaj nutqi» atamalari ham qoʻllangan¹⁰; H.Umurov masalani «badiiy nutq» tarzida qoʻygan holda anʼanaga muvofiq «badiiy til» va «poetik til» atamalarini unga sinonim oʻlaroq ishlatadi ¹¹; D.Quronov ham «badiiy asar tili» tushunchasini asosga qoʻygan holda «badiiy til» va «poetik til» atamalarini unga sinonim sifatida qoʻllagan¹². Shu bilan birga, D.Quronov: “«badiiy asar tili» degani holda, aslida, gap badiiy nutq haqida borayotgani maʼlum, chunki til unsurlari maʼlum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi” – deya taʼkidlagan ham. Yaʼni keyingi ikki holda murosa yoʻli tutilganini sezish qiyin emas. Mavjud holat esa, albatta, muayyan noqulayliklar keltirib chiqarishi tabiiy hol. Shu bois, avval ayni masalani hal qilib olish lozim. Dilmurod Quronov tilshunoslik va adabiyotshunoslikda bir xilda qoʻllanilayotgan “badiiy til” terminini muqoyasa

⁸ Теория литературы. М. Академия 2004 С.124

⁹ И.Султон. Адабиётшунослик асослари. - Тошкент, 2002. — Б. 156 - 170

¹⁰ Бобоев Т.Адабиётшунослик асослари. - Тошкент, 2002. — Б. 156 - 170

¹¹ Умuroв Х. Адабиётшунослик назарияси. -Тошкент, 2004. - Б. 142- 157

¹² Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. - Тошкент, 2004. - Б.114 - 123

qilar ekan, badiiy til va badiiy nutq atamalari bir-biridan farqlanuvchi istiloh ekanligini isbotlashga harakat qilgan: "Tilshunoslikda til va nutq bir-biridan farqlanganiga yuz yildan oshdi: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu haqiqat Ferdinand de Sossyur tomonidan isbotlangan. Adabiyotshunoslikdagi yuqorida tavsiflangan holat esa mazkur haqiqatni yo tan olmaslik, yo ko'rib-ko'rmaslikka olishdirki, bularning ikkisi ham ilmiylikka xilofdir. Ikkinchi tomondan, badiiy asarlar tilining jonli so'zlashuv tiliga yaqinlasha boshlashi (Yevropada bu jarayon XVII - XVIII asrlarda, bizda XX asr boshlaridan kuzatiladi) bilan ikkalasi orasidagi farq yo'qola boradiki, buning natijasida «badiiy til» istilohi ham tobora mavhumlashib, ma'nosini yo'qotib boradi. Ya'ni ilgari, poeziya tili jonli so'zlashuv tilidan keskin farq qilgan vaqtda, istiloh ostida o'sha farqli til tushunilgan. Endilikda esa, ya'ni badiiy til bilan jonli so'zlashuv tili bir-biriga nihoyatda yaqinlashgan sharoitda istiloh anglatayotgan narsani tasavvur qilish qiyinlashib, uning ortiqcha bo'lib qolgani yaqqol sezila boshladi. Fikrimizcha, mazkur holat ko'rilayotgan masalaga oid istilohlarning qo'llanishini tartibga solish zarurligini asoslash uchun yetarlidir"¹³. Biz bu fikrga to'liq qo'shilamiz. Sababi til umumiylik, nutq esa xususiylik, individuallik xususiyatiga ega. Tilning egasi xalq bo'lish bilan birgalikda, uning go'zal imkoniyatlari ijodkor qalami bilan nutq hodisasiga aylanadi.

Badiiy nutq masalasini qaysi soha o'rganishi borasida ham manbalarda turlicha qarashlarga duch kelamiz. Jumladan, B.Tomashevskiyga ko'ra, badiiy nutqni o'rganish vazifasi to'laligicha tilshunoslik zimmasida. Faqat an'anaviy ravishda, badiiy nutq bilan bog'liq masalalar ritorika va poetika bag'rida paydo bo'lgani uchungina ular keyinchalik tilshunoslik emas, adabiyot nazariyasi tarkibiga kiritiladi va ayni an'ana oqimida eskidan adabiyotshunoslik fanlari sirasida o'qitib kelinadi.¹⁴ Shuningdek, masalaga umumfilologik muammo sifatida qaraydigan yoxud uni muhim sanamagani sabab e'tiborsiz qoldiruvchi olimlar ham

¹³ Куронов Д. Адабиётшунослик назарияси асослари Тошкент :Академнашр , 2018. - Б.239

¹⁴ Томашевский. Теория литературы. Поэтика.М. Аспект пресс 1996 с.29

bor. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda *badiiy nutqni ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikning obyekti* deb hisoblaydigan mutaxassislar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, V.Xalizevga ko'ra ham xuddi shunday, faqat bu ikki sohaning badiiy nutq masalasiga yondashuvi, uni o'rganishdan ko'zlaydigan maqsadlari farqli. Xususan, tilshunoslikni badiiy nutq, eng avval, tildan foydalanishning muayyan maqsadga yo'naltirilgan, shunga xoslangan vosita va me'yorlariga ega bir shakli o'laroq qiziqtiradi. "Badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi *lingvistik poetika* deb atalib, u *badiiy asar tili* (yoki *poetik til*) tushunchasini tayanch — asos qilib oladi. Adabiyotshunoslik uchun esa tayanch — asos tushuncha *badiiy nutq* bo'lib, adabiyot ilmining uni o'rganuvchi bo'limi *stilistika* deb ataladi.¹⁵ Shu o'rinda «tilshunoslikda nutqning funksional-uslubiy shakllarini, jumladan, badiiy nutqni ham o'rganuvchi *stilistika* bo'limi mavjud, bu ikkisinin munosabati qanday?» — degan savol tug'iladi. Asosiy farq shundaki, lingvistik stilistika badiiy nutqqa funksional uslublardan biri deb qaraydi va uning til xususiyatlarini o'rganadi. Ya'ni tilshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy nutq (badiiy matn) til qonuniyatlarini o'rganish uchun material, vosita bo'lsa, adabiyotshunos uchun u — estetik obyektni yuzaga keltiruvchi yagona asos. Zero, shaklning uch aspektidan birgina badiiy nutq moddiy bo'lib, o'quvchi faqat uni tovush yoki yozuv o'laroq bevosita qabul qiladi, unga asoslanibgina tasavvurida badiiy voqelikni jonlantira oladi. Shunga ko'ra, birinchidan, tilshunoslikdan farqli o'laroq, adabiyotshunoslik uchun badiiy nutq vosita emas — ayni maqsad; ikkinchidan, badiiy nutqning qanday qurilgani, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilish asar poetik olamiga kirish uchun ko'prik vazifasini o'taydi"¹⁶.

Badiiy nutq kundalik muloqot tilidan butunlay farq qilmagan holda, obrazlilik va badiiy asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi badiiy asar tili hisoblanadi. Adabiyotshunoslik darsliklarining, deyarli, barchasida badiiy nutqning muhim vazifasi sifatida obrazlilik va emotsionalligi ta'kidlanadi. Shu

¹⁵ Хализев В.Е. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 2002. - С.260;

¹⁶ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr: 2017 240-bet

o'rinda aytish joizki, adabiyotshunos olimlar I.Sulton hamda T.Boboevlar obrazlilik va emotsionallikni alohida-alohida xususiyat sifatida ko'rsatadilar. Yuqorida aytganimizdek, badiiy til adabiy tildan keskin farq qilmaydi. Buning isboti sifatida quyidagi jummalarni keltirishimiz mumkin: "Badiiy til jonli (umumxalq) tilining farzandi bo'lib, uning bosh vazifasi – badiiylik (obrazlik)ni yaratishdir. Shu vazifadan kelib chiqib, jonli va adabiy nutqlarning barcha hodisalarini hissiy (estetik) tarzda umumlashtiradi"¹⁷. Bu borada H.Umurov badiiy tilning bir nechta o'ziga xos asosiy xususiyatlarini ifoda etuvchi qonuniyatlarini ko'rsatadi. Ularning eng birinchisi obrazlilikdir, deydi. Albatta, obrazlilik asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalardan tortib narsa-predmetlarning barchasi o'quvchi ko'z o'ngida jonli gavdalanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Professor Y.Solijonov ham D.Quronovning shu masala yuzasidan yozganlarini ma'qullab, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning obrazlilikni emotsionalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, har qanday badiiy asar obrazli nutq asosiga qurilgandagina umriboqiy bo'ladi. To'g'ri kelsa-kelmasa har qanday o'xshatish, jonlantirish, metafora va ramzlarni qo'llash bilan obrazlilik hamda emotsionallikka erishib bo'lmaydi. Obrazlilik asar ohangini, voqelik yo'nalishini, qahramonlar psixologiyasini va eng muhimi, ijodkor uslubini belgilab beradi. Aytmoqchimizki, har qanday nutq, yaltiroq va balandparvoz iboralar ham badiiylikni belgilab berolmaydi"¹⁸. Darhaqiqat, "San'atkor doimo minglab so'zlar ichidan eng keragini tanlaydi, zargarona tanlangan ana shu so'zlar qahramon va sharoitning mazmuni (g'oyasi), holati bilan chambarchas bog'lanishi, u aniq estetik maqsad(mazmun)ni voqe qilishi shart"¹⁹.

Badiiy asar tilning o'ziga xos xususiyatlari adabiyotshunoslik, ayniqsa, badiiy nutq uslubiyati sohalarida keng o'rganilmoqda. Mashhur uslubshunos olim V.D.Levin fikriga ko'ra, badiiy asar tili yaxlit ma'noda yagona uslubiy tizimni

¹⁷ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 145- b.

¹⁸Solijonov Y. Nazariy poetika. Ma'ruzalar matni. – Farg'ona, 2017.

¹⁹Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004, 149-b.

tashkil etmaydi va u har qanday uslubiy tahlil qamrovidan tashqarida turadi. V.P.Muratning fikricha, har qanday adabiy til doirasida badiiy adabiyot uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlar mavjud. Ana shunga ko'ra badiiy asar tili adabiy til me'yorlaridan tashqarida turadi. Badiiy asar tili o'z mohiyati bilan obrazli tildir. Demak, badiiy obrazlilik tushunchasi ifoda vositalariga boylik, so'zlardagi emotsionallik, bo'yoqdorlik, ta'sirchanlik holatlarga bog'likdir. "Adabiyotning bosh quroli – bu so'z. Haqiqatdan ham, adabiy asar axborot vositasigina emas. Unda hikmat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy madaniyat va hayot falsafasi sintezlashgan. So'z san'ati o'sha tasvir obyektini o'zining obrazlar tizimiga aylantirar ekan, voqelikni, odamlar taqdirini badiiy tadqiq etarkan, ularni go'zallik qonuniyatlari nuqtayi nazaridan qayta jilolantiradi. Asl san'at oddiy va kundalik ashyolarga shunday ma'no yuklay oladiki, natijada o'sha tasvirlangan mazmun tarixiy mazmun kasb etadi. San'atning betakror mohiyati ham shundaki, u aynan shu davrdagi odamlar ong-shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi, natijada o'sha ifoda obyekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan e'tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi"²⁰. Unda ruhiyatdan o'zlashayotgan kechinma jilosi qad rostlaydi, unda tuyg'u va ong turfa manzaralari o'quvchi idrokiga ko'chadi, unda tasvir ruhiyati zichligi ijodiy o'ziga xoslik kasb etadi. "Ijodkorning o'z oldiga qo'ygan maqsadi til orqali ilgari suriladi. Barchaga yaxshi ayonki, o'zbek adabiyoti uzoq va murakkab nutqiy jarayonni boshdan kechirdi. Vaqtlar o'tib, asardagi til masalasi poetika muammosining tarkibiy qismi sifatida o'rganila boshlandi.

Badiiy nutq tiplarini A. Feodorov quyidagicha tasnif qiladi:

1. Voqealar, odamlar xatti – harakati haqidagi hikoya va muallifning tabiat, shart – sharoit, ishtirok etuvchi shaxslarning tashqi qiyofasi, ust-boshining tasviri, ularning ruhiy holati va kechinmalarining xarakteristikasi va h. k. haqidagi mulohazalarini o'z ichiga olgan bayon;

²⁰ G'ulom Mirza Lirikasida nutqning badiiy mohiyati // ilmiy maqolalar. Megaline.uz

2. Ishtirok qiluvchilarning bevosita nutqi – ularning bir-biri bilan so‘zlashuvi;
3. Ichki nutq – personajlarning aytilmagan, ammo replika kabi boshqa odamga qaratilgan fikrlari;
4. O‘zganing nutqini uchinchi shaxs tipi orqali hikoya qilib berilishida ko‘rinuvchi noxususiy bevosita nutq.

Yuqoridagilardan bilib olish mumkinki, badiiy nutq tiplari, tur va shakllarini M.M. Baxtin uch turga, A. Feodrov to‘rt turga bo‘lib o‘rganadi. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy nutq tiplari, tur va shakllarini birinchilardan bo‘lib adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov quyidagicha tasnif qiladi:

Monologik – qissaxonlik nutq uslubi;

Ikki ovozli – hikoyanavislik uslubi;

Ko‘p ovozli – bayon uslubi;

Ohangning har xilligi – patetik, oratorlik, qo‘shiq, deklomatsiya uslubi;

Iboralarning qurilishi jihatidan – kesik, zarbli, yoyiq va ritmik siqqlik uslubi;

Leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to‘yingan avtor nutqi, uslubi va hokazo”²¹.

O‘zbek adabiyotida badiiy asar tili va nutq shakllari bo‘yicha P. Qodirov, S.Mamajonov, Y.Solijonov, O‘.Nosirov, H. Umurov, G. Imomova, A.Nurmatov maxsus tadqiqotlar olib bordilar. Badiiy nutq tiplari, tur va shakllari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rus adabiyotshunosligida V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, N.K.Gey, M.B. Xrapchenko, M.M. Baxtin, A. Feodrov, V. Kojinov, V. V.Odinov olib borganlar.

Nutq o‘z navbatida ikkiga bo‘lib o‘rganiladi:

1.Monologik nutq ;

2.Diologik nutq.

²¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

Badiiy asarlarda qo'llaniladigan ayrim holatlar badiiy nutq tiniqligi va badiiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chinakam san'atkor – ijodkor esa, badiiy nutq imkoniyatlarini chuqur va puxta egallashi, adabiy til hamda xalq jonli so'zlashuv nutqidan unumli va o'rinli foydalana olishi kerak. “Dunyoda badiiy so'zning kuchiga teng keladigan hech narsa yo'q. U kishining ma'naviy dunyosini boyitadi”²²– deb ta'kidlaydi Yo'ldosh Solijonov. Shunday ekan, har bir ijodkor pala-partishlikka also yo'l qo'ymasligi, bachkana iboralarni mutlaqo qo'llamasligi, so'zdan oqilona foydalanishi kerak.

Albatta, “badiiy asar tili” deganda, aslida, gap badiiy nutq haqida borayotgani ma'lum, chunki til unsurlari ma'lum matnni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi. Ta'kidlash kerakki, mazkur farqlanish asosan epik va liro-epik xarakterdagi asarlarga xosdir.

Badiiy nutq ikki shaklda: sochma (nasr) va tizma (nazm) shakllarda mavjuddir. Nasriy nutq tuzilishi jihatidan kundalik muloqot tiliga o'xshash bo'lsa, she'riy nutq muayyan bir o'lchovga solingan, hissiy to'yintirilgan nutq sanaladi. Nasriy nutq epik va dramatik asarlarning asosiy nutq shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, she'riy yo'lda ham epik va dramatik asarlar yaratilishi mumkinligini unutmaslik kerak. She'riy nutq esa lirik asarlarning asosiy nutq shaklidir.

Badiiy asarda ohang masalasi eng kam o'rganilgan sohalardan biridir. Bunga sabab, ohangni musiqa fanining o'rganish obyekti deb qaralgani va ko'z bilan ko'rib qo'l bilan ushlab ko'rishning mumkin emasligidir. XIX – XX asrlarga kelibgina ohang masalasi ham badiiy adabiyotning o'rganish obyekti sifatida talqin qilina boshlandi. Bu narsani birinchilardan bo'lib rus adabiyotshunosi M.Baxtinning "Dostoevskiy ijodi muammolari" (1929) asarida

²² Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

ochib bergan bo'lsa, o'zbek adabiyotida S.Mamajonov, Y.Solijonov, I.Haqqul²³ o'z ilmiy tadqiqotlari orqali olib kirdi deb aytish mumkin.

Kristofer Koduell: «Ilm har doim matematikaga, she'riyat esa muzikaga intiladi», – deb bejiz aytmagandi. Uning yozishicha, «she'riyat, eng avvalo, qo'shiqdir, ritmsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan qo'shiqni esa, odatda, jo'rovozlikda kuylanadi, u umumiy kayfiyatni ifodalaydi. Ko'tarinki nutqning jumboqlaridan biri ham shunda».

Shu ritm va ohang tarixiy qimmatga ega, boshqacha aytganda, zamonning ruhi va odamlarning kayfiyati she'riyatning ritmi, ohangida ham aks etadi. Ularda zamon muhri, hayot muhri yotadi. Aristotelning bu xususdagi quyidagi so'zlari o'z qimmatini mutlaqo yo'qotmagan: “Ritm va ohanglar dastavval real voqelikka yaqin keluvchi g'azab va muloyimlikni, jasorat va mo'tadillikni hamda shularga zid xususiyatlarni, xuddi shu kabi boshqa axloqiy sifatlarni aks ettirishni o'z ichiga oladi”.²⁴

Mashhur psixoanalitik Zigmund Freyd insonning tana a'zolaridagi xastalikni she'r orqali ham davolash mumkin ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. She'rning ruhiy parvozi ham inson irodasining qanchalik matonatli va chidamliligi bilan ham belgilanadi. Ruhiy chidam har qanday og'riqlarni, iztiroblarni yengib o'tishga qodir. Tafakkurning bepoyon parvozlari fazoviy bo'shliqlarni zabt etadi, unga maqsad nazari bilan erishiladi. Deylik, shoira Zulfiya optimistik kayfiyat bilan she'rlar yozmaganida edi, bunday tavsiflarni yevropalik olimlar nazariyasi orqali ta'riflagan bo'lar edik. U o'ziga madad so'ragan kuchdan ilhomlanadi. Har lahzada Yaratganning istagiga qarshi chiqmaydi. Faqat “she'riy asarlarida” ayriliqning, hijronning diliga jo qilgan manzarasini, taqdir hukmi, deya musavvirona chizishga

²³ Mamajonov S. Saylanma. Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti 1981; B-266-288; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари док... дисс... автореф. – Тошкент, 2002; Haqqulov I. Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” asariga yozgan so'zboshisi. T.1991, b-18.

²⁴ Aristotel.Poetiika.-Toshkent, Yangi asr avlodi, 2011, 48-bet

erishadi. Obrazli tafakkur negizida qalb kechinmalari yanada reallasha boradi. Bunday qarashlar psixolog Otto Rank talqinida ham kuzatiladi: “San’atkor madaniy hayotimizga dushman bo’lgan yovuz instinktlarimizni tinchlantirib, ularni ezgulik yo’liga burib yuboradi. U bizni ham ichki zulmdan qutqarib, ham ko’nglimizni shod etadi”. Haqiqatan ham, san’atning bosh maqsadi insoniyatga ezgulikdan saboq berish, yovuzlik ustidan tantana qilishdir.

Ko’povozlilik - polifoniya atamasi ilk bor XIX asrda rus adabiyotshunos olimi M.Baxtinning "Dostoevskiy ijodi muammolari" (1929) asarida adabiyotga tatbiqan ishlatilgan bo’lib, unda, asosan, Dostoyevskiyning romanlarining polifonik xususiyati va umuman, bu xususiyat romanlar doirasida tekshirilgan xolos edi. Yangi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ko’povozlilik faqat romanga xos tushuncha emas, u qadim ildizlarga ega. Uning ildizlari o’zbek adabiyotida Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Bu haqida Ibrohim Haqqul quyidagilarni bayon etadi:

“Tan olaylik, bizda she’r ilmining rivoji ancha sust. Shuning uchun polifonik tafakkur xususida hali jiddiy o’ylab ko’rilmagan. Rauf Parfi, Muhammad Solih she’rlarini ayrimlar hanuzgacha qabul qilisholmaydi. Ular haqida bir-birini inkor etadigan fikrlar ilgari suriladi. Jo’nlik va sufizmga ko’niktirilgan sho’rlik o’quvchi kimga ishonishini bilmay qoldi. Rauf Parfi va Muhammad Solih polifonist shoirlar. Sovet davri o’zbek she’riyati uchun ularning poetik tajribalari yangi hodisa. Ammo necha asrlik adabiyotimiz uchun yangilikmas. Polifoniya – ko’pohangli, ko’pma’noli degani. Polifonik tasvir asar bag’riga bir necha ma’no va ohanglarni sig’dirishni zaruriyatga aylantiradi. Bunda fikr chaynalmaydi. She’r so’zbozlik va ma’no yalang’ochligidan xalos bo’ladi. Polifonik ifodalar she’rdagi ma’lum bir obraz yoki belgi ta’sirida ko’plab hayotiy hodisalar haqida fikrlashga yo’l ko’rsatadi. Polifonik uslubda tasvir va munosabat go’yo birinchi o’rinda turadi, tafakkur yalqovligi va fikrsizlikka murosasizlik, qandaydir ayovsiz qarshilik seziladi. She’rxon aytilgan so’zdan aytilmagan so’zlarda haqiqat ko’pligini his etib, o’sha haqiqatlar mushohadasiga beriladi. O’zbek adabiyotida polifonik

tafakkur Ahmad Yassaviydan boshlanib, Navoiy poeziyasida yuksak bosqichga ko'tarilgan".²⁵

D.Quronov ham "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da ko'povozlilik hodisasi deyarli barcha asarlarga xos xususiyat ekanligini ta'kidlaydi. "Polifoniya (yun polys – ko'p, phone - ovoz) - musiqashunoslikdan o'zlashgan termin, M.Baxtinning "Dostoevskiy ijodi muammolari" (1929) asarida ilk bor adabiyotga tatbiqan ishlatilgan. Mazkur asarida olim F.Dostoevskiy romanning yangi tipi – "polifonik roman" yaratganini asoslab beradi. Baxtin roman misolida ko'rsatib bergan polifoniyani faqat roman doirasi bilan cheklab bo'lmaydi. Zero, olim roman misolida XIX asr oxirlaridagi badiiy tafakkurda sodir bo'lgan o'zgarishlarni ochib bergan ediki shu ma'noda polifoniyani badiiy tafakkurning yangi sifat ko'rinishi deb tushunish lozim Ayni chog'da, badiiy tafakkurning mazkur shakli monologik tafakkurni inkor qilmaydi, ya'ni bu ikkisi badiiy ijod amaliyotida yonma-yon yashayveradi. Shu bois polifonik badiiy tafakkur hozirda nafaqat roman, balki qissa, hikoya kabi epik, shuningdek, dramatik va hatto, ayrim lirik asarlarda ham kuzatilishi mumkin".²⁶

She'riy asarlarda ohangning ikki xil shakli uchraydi:

1. Monologik ohang – she'rlarda uchrovchi ohangning eng keng tarqalgan turi bo'lib, lirik qahramon , qofiya, obrazlilik va emotsionallik orqali voqe bo'ladi.
2. Polifonik ohang – bir asar orqali bir vaqtning o'zida bir necha ohanglarning jaranglab turishidir. Polifoniya murakkab hodisa bo'lib, har qanday ijodkor uslubida uni uchratish qiyin.

She'riyat bilan musiqa nihoyatda bir-biriga yaqin bo'lib, musiqa inson qalbini va hayot ohangini kuy orqali, she'riyat esa so'z orqali ifodalaydi.

²⁵ A.Yassaviy. Devoni hikmat. (ibrohim Haqqulov yozgan so'zboshi)T.1991.18-bet

²⁶ D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.:Akademnashr. 113-114-betlar

1.2. Badiiy nutq va ijodkor uslubi

“Badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari uni amaliy nutq kundalik muloqot amalga oshiriladigan nutq bilan qiyoslaganda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Amaliy nutq uchun muhimi — muayyan informatsiyani yetkazish, uning qanday yetkazilishi muhim emas. Badiiy nutqda esa, aksincha, o‘sha informatsiyaning qanday yetkazilishi ham g‘oyat muhim, unda ifodaga e’tibor ustuvorlik qiladi. Shu bois, badiiy nutq tasvir vositasigina emas, ayni paytda, tasvir predmeti ham sanaladi. Amaliy nutq axborot-kommunikativ funksiyani, badiiy nutq esa badiiy-kommunikativ, aniqroq aytsak, badiiy muloqot asosida *estetik* funksiyani bajaradi. Badiiy nutqning xususiyatlari haqida so‘z borganda eng avval uning *obrazlilik* tilga olinadi. Ma’lumki, tilda mavjud so‘zlarning ko‘pchiligi shundoq ham obrazli tabiatga ega, Biroq badiiy nutqning obrazlilikini bu bilan chalkashtirmaslik kerak. Zero, badiiy nutqning obrazlilik o‘sha so‘zlarning o‘zaro mazmuniy-grammatik aloqa-munosabatda izchil bir qatorga tizilishidan voqe bo‘ladi, ya’ni u *ikkilamchi obrazlilikdir*. Badiiy nutq shunchaki informatsiya yetkazmaydi, balki lisoniy obrazlar qatorini davriy ketma-ketlikda yaratib boradi va pirovardida o‘quvchini yalang fikr-xulosaga emas, badiiy voqelikka ro‘baro‘ qiladi. Shu bois ham o‘quvchi o‘sha badiiy voqelik haqida shunchaki ma’lumotga ega bo‘libgina qolmaydi, uning ichida yashab, his qilib o‘tadi”.²⁷ Zamonaviy adabiyot nuqtayi nazaridan qaralsa, badiiy nutq obrazlilik go‘zal tashbeh-u istioralar yoxud boshqa tasvir va ifoda vositalari (o‘xshatish, metafora, ramz va b.)ga boylik, bezakdorlik, bo‘yoqdorlik, ko‘tarinkilig-u jimjimadorlik kabi sifatlar bilan belgilanmanligini ham unutmashlik lozim. Ilgari aytilganidek, mazkur xususiyatlar badiiy nutq hali jonli so‘zlashuvga yaqinlashmagan davrlarda belgilovchilik maqomida edi. Hozirgi adabiyotda esa bu xil vositalar mutlaqo yoki dayarli ishlatilmagan asarlar ham juda ko‘p, biroq bu bilan ulardagi nutq «badiiy» sifatidan mahrum bo‘lib qolmaydi. Masalan, Zulfiyaning “Sensiz” she’riga diqqat qilaylik:

²⁷ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: Akademnashr, 2018

Nega tirik ekan, tashlab ketmading,

Tashlab ketmading-da, boshlab ketmading?!

Ushbu satrlar badiiy tasvir vositalaridan holi, ammo bu misralar badiiy nutqdan holi emas. Unda lirik qahramonning alami, afgʻoni, oʻkinchi, qiynalganligi va kuchli muhabbati shu ikki satrga sigʻdirib yuborilgan. Lirik qahramonning his-tuygʻulari bir onda oʻquvchiga ham koʻchishini sezish qiyin emas. Shu sababdan, birinchi galda badiiylilikni taʼminlovchi omil sifatida obrazlilik va emotsionallik eʼtirof etiladi.

OLlim Y.Solijonov “Haqiqatning sinchkov koʻzlari asarida badiiy nutq toʻgʻrisida fikr yuritib, ijodkorning mahoratini toʻgʻri soʻz tanlay olish bilan bogʻlagan: “Nutq goʻzalligi badiiy adabiyotning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Soʻzni tanlab joyida ishlata bilmaslik, palapartishlikka yoʻl qoʻyish asar sifatiga futur yetkazadi. Soʻz tanlay bilishning katta ahamiyati toʻgʻrisida atoqli adib M.Gorkiy shunday degan edi: "Faktlar zahirida yashiringan ijtimoiy hayot maʼnosini uning muhimligi, toʻlaligilaligi va yorqinligicha tasvirlashni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻygan badiiy adabiyotdan ravon, tushunarli til, puxta tanlangan Soʻzlar talab etiladi. Hozirgi ijodkorlar esa, ana shunday tanlab olishning naqadar ahamiyatli ekanini yaxshi tushunmaydilar, bu asarning sifatini juda ham pasaytirib yuboradi”²⁸.

Demak, badiiy adabiyotda sifat oʻzgarishining yuz berishi, eng avvalo, tilda ixchamlik, mayinlik, ravonlik va soddalikka erishish bilan oʻlchanadi. Ulkan sanʼatkorlar har doim oʻz asarlari sifatini yaxshilash uchun, uning tili ustida qayta-qayta ishlaganliklari maʼlum.

“*Uslub*” arab tilidan oligan boʻlib, “*tartib*”, “*yoʻsin*”, “*shakl*” degan maʼnolarni anglatadi.²⁹

²⁸ Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. Т.: А.Навоий номидаги Ўзбек миллий кутубхонаси нашриёти, 2011 Б. 104

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008, 299- бет.

E. Xudoyberdiyevning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida uslub atamasi quyidagicha ifodalangan: “Tilning alohida ma’no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik vositalari uslub deyiladi”³⁰.

H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimovalarning hammuallifliklaridagi “Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati” da uslubni keng ma’noda ijodkor ijodidagi g’oyaviy-badiiy xususiyatlari birligi deb, tor ma’noda esa, ifoda usuli, tarzi, bayon degan ta’rif keltiriladi. E.Xudoyberdiyev darsligida esa, uslubning xilma-xil tushunchaga ega ekanligi ta’kidlanib, uslub “keng ma’noda muayyan davr adabiyoti uslubi, turli xalqlar adabiyotiga xos bo’lgan uslub (milliy uslub), deyilishi mumkin. Bu atama tor ma’noda bir ijodkor ijodiga nisbatan ham (Alisher Navoiy, L.Tolstoy, Hamza, Abdulla Qahhor uslubi), nihoyat alohida bir asarga nisbatan ham (Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi yoki Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi uslub) ishlatiladi”³¹ degan kengroq izohni ko’rishimiz mumkin.

Adabiyotshunos olim Hamidullo Boltaboev o’zining “Sharq mumtoz poetikasi” nomli asarida Abdurahmon Sa’diy, Abdurauf Fitratlarning uslub bo’yicha yozgan nazariy fikrlariga o’z munosabatini bildirgan.

Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida nazariy jihatdan chuqur yozilgan qismi uslub haqida bo’lib, qo’llanmaning eng ahamiyatli tomoni hisoblanadi. Jumladan, bu bo’yicha quyidagicha ancha izchil tushuntirishlar bor: “Uslubning adabiyotdagi o’rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma’lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilgan bo’lishi mumkindir, ularning bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o’quta olg’an kuch uslubdir”³² A.Fitrat uslubning quyidagi jihatlariga batafsil izoh bergan:

1. Uslubning ishlanishi.
2. Uslubning shakllanishi.
3. Uslubning milliyligi.

³⁰Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 321-б.

³¹Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 321-б.

³²Фитрат А. Адабиёт қоидалари –Тошкент, 1995, 10- б..

4. Uslubning zamonaviyligi.

5. Uslubning individualligi.

Uslubning ishlanishi hamda shakllanishini mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lgan "Layli va Majnun" dostoni bilan asoslaydi: "Buni fors shoirlari necha da'f'alar yozg'anlardir. Hammasida hikoya birdir, voqea bir turlidir. Biroq forschaturkcha bilgan bir kishi Nizomiyni, ondan keyin Jomiyni o'qiydir. Xisravga kelgach, Navoiyni ,albatta, ularga tarji' qiladi. Fuzuliyni ko'rgach, Navoiyning "Layli, Majnun"ini tokchaga qo'yib, Fuzuliyni o'qishga majbur bo'ladir. Mana bular "uslub"ning ishidir"³³.

Abdurauf Fitratning uslubni bu kabi sodda tushuntirishida badiiy asar uslubini yaxlit – badiiy butunlik sifatida talqin qilish va uni boshqa asarlardan farqlovchi "unsur" deb bilish aks etgan. "Shunday xulosa qilishga asos tug'iladiki, badiiy asar uslubi asarni tashkil etadigan barcha unsurlar tizimi (yig'indisi) emas, balki o'sha "elementlar sistemasini bir-biriga tutashtiradigan" badiiy qonuniyat – muallifning o'ziga xos prinsipi"dir³⁴. Muallif bu tutashtirish jarayonida adib shunday o'ziga xos nuqta va chizgilardan topa bilishi kerakki, u boshqa ijodkorlarda uchramasin, "o'sha ijodkorning o'zi shunday ko'rsin, shunday o'ylasin, shunday his etsin va boshqacha his etishi mumkin bo'lmasin". Ko'rinadiki, dastlabki tushuncha badiiy asar zaminida ikkinchi istiloh – "adib uslubi" tug'iladi, bu ikki istiloh o'rtasidagi nozik ayirmani farqlamay turib, uslubiy tahlilga kirishish nomuvofiq bo'lgani kabi har ikki tushunchani birday qabul qilish ham uslubiy tahlilda ko'p noqulayliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham ko'p olimlar ikkinchi tushunchaga nisbatan ijodkor shaxs, ijodiy individuallik (o'ziga xoslik) kabi so'z birikmalarini qo'llashni ma'qul ko'radilar.

Abdurahmon Sa'diy biz bugungi kunda umumxalq tili va badiiy til deb yuritayotgan tillarning farqlangani, qolaversa, bular o'z o'rnida ikki xil uslubni bildirishini aytadi. "Birinchisi o'qimishlilar, shoirlar, adiblar tili bo'lub, ikkinchisi

³³Фитрат А. Адабиёт қондалари –Тошкент, 1995, 10- б.

³⁴ Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. – Тошкент, 2008, 323-б.

o‘qumag‘anlar yoki oz o‘qumishlilar tilidir. Buni omma tili yoki xalq tili deb yurgizadirlarki, bu ko‘pchilik tili bo‘ladi. Omma tili yozuv tiliga qaraganda juda sodda, juda yengil bir tildir. Shuning bilan birga bu til tub so‘zlarga boy bo‘lgan bir tildir. Har xalqning adabiyotida har holda tub tayanchi bo‘lub keladi”³⁵.

Shuningdek, A. Sa‘diy ulsubni “shoir miyasining ko‘lankasi”ga o‘xshatadi va tajribali, katta shoirlar o‘zlarining uslubida o‘zlari ko‘rinadi deydi. Yassaviy, Navoiy va Muhammad Solih kabi chig‘atoy shoirlari, Bobur va Abulg‘ozi kabi muharrirlar o‘zlariga ayrim mustaqil uslubga ega bo‘luvchi olimlar sifatida ko‘rsatadi.

Fitratning uslubga bergan ta‘rifi singari, Abdurahmon Sa‘diy ham shoirlarning ko‘plari xalqqa tamom yot bo‘lgan yangi fikrlar, yangi hislar tug‘dirmaydi, balki xalq o‘rtasida ilgaridan ma‘lum bo‘lgan umumiy fikr va hislar uchun yangi shakllar, yangi jozibali qiyofalar yaratadilar deb hisoblaydi. Ahamiyatli jihati shundaki, Fitrat ham, Sa‘diy ham nazariy jihatdan bir gapni ammo o‘z uslublarida uslub mohiyatining ta‘rifini ochib berganlar. Shuning singari bir asar umrining uzun bo‘lishini ham uslub belgilab beradi. Ayni bir shoirning uslubi ham hamma mavzuda va har vaqt bir xil bo‘lmasligi, mavzu va mundarijaga qarab bir-ikki shoirning uslubi turlicha bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

Haqiqatan ham, har bir ijodkorning dunyoni ijodiy o‘zlashtirish davomida orttirgan hissiyotlari tajribasi, olamni o‘ziga xos ko‘rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo‘li bo‘ladi. Ijodkorning mahorati, tasvirlash san‘ati, roviylik darajasi ham, asosan, shu belgilar badiiylik mezoni sifatida qaraladi. Adib uslubi o‘zbek adabiyotshunosligida nazariy obyekt sifatida chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ma‘lum bir adib ijodi bilan bog‘liq holda o‘sha adibning poetik mahorati, uslubi va tasvirlash san‘atiga bag‘ishlangan anchagina ishlar e‘tiborga molik. Bulardan Alibek Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979), M.Qo‘shjonovning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati” (1978), S.Mamajonovning “Uslub jilolari”(1972), M.Sultonovning “Ijodkor uslubiga doir” (1969) kabi asarlarni

³⁵ Хамидулло Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. Тошкент, 2008, 346-6.

eslash mumkin. Ba'zan adabiyotshunos va tanqidchilar bir maqola doirasida ham muayyan adib uslubining o'ziga xos tomonlarini tushuntira bilganlar. O.Sharafiddinovning "Abdulla Qahhor" portreti, Umarali Normatovning "O'ziga xoslik sirlari" (Sh.Xolmirzaev haqida), I.G'afurovning "O'rtoq shoir" (M.Shayxzoda haqida) maqolalarini bu o'rinda eslamaslik mumkin emas.

Hamidullo Boltaboevning o'zi "davrlar uslubiy istilohi" yuqoridagi tushunchalarni, ayniqsa, badiiy asar uslubiy va adib uslubini, ularning qatida yotgan betakror o'ziga xoslik inkor qiladi. Shu bilan birga adabiyotshunoslikda bu istiloh ma'no jihatdan kengaytirilib, keyingi yillar adabiyotiga nisbatan (tadqiq etilayotgan davrdan kelib chiqib) "zamonaviy uslub" shaklida qo'llanilgani ham ma'lum"³⁶ degan fikrlarni yozadi.

Darhaqiqat, hayot ijodkordan o'ziga muvofiq va muqobil uslubni uslubiy izlanishlar orqali topib olishni taqazo qiladi. Har bir ijodkor uslubiy individual bo'ladi, ammo u davrning umumiy uslubiga ham moslanadi. Uslub kitobxon yo tomoshabinga ham mo'ljallanadi. U dastlab o'z muxlislarini topa olmay qiynalishi ehtimol, ammo oxir o'z yo'lini, o'z kitobxon va tomoshabinlarini, albatta, topib oladi, bunda u estetik tuyg'u hosil qilish fazilatiga erishadi.

Chexov bilan Abdulla Qahhorning uslubiy bir-biriga yaqin. Bu "uslubiy hamohanglik" mazkur ikki hikoyanavisning adabiy-estetik qarashlaridagi yaqinlik, tildan foydalanishdagi mahorat (qisqalik) bilan izohlanadi.

Erkin Xudoyberdiyev ijodkorning o'ziga xos uslubiy tushunchasi deganda, uning ijodiga xos umumiy uslubiy xususiyatlar ham, ayrim asarlardagi o'ziga xos tomonlarni nazarda tutadi. Amaliy jihatdan bunday tushunchaga ehtiyoj kattaligining sababini, u adabiy asarlarni va ulardagi unsurlarni o'zaro aloqadorlikda, uzviy birlikda o'rganishga imkon berishi, ayrim asarlardagi o'ziga xos uslubiy xususiyatlarni o'rganmay turib, ijodkor ijodidagi yetakchi tomonlarni, umumiy belgilarni aniqlab bo'lmazligini ta'kidlaydi.

³⁶ Хамидулло Болтабоев. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. Тошкент, 2008, 324-б.

Ko‘plab adabiyotshunoslik darsliklarida o‘ziga xos uslub deganda, har bir asarning butun bir tuzilishida (tili, syujeti, kompozitsiyasida), mazmundor shaklida ko‘zga tashlanadigan o‘ziga xos tomonlari tushuniladi. L.Tolstoy uslubi kishilar ruhiyati tahlili sohasida N.G.Chernishevskiy ta’riflagan va L.Tolstoy asarlarining har bir iborasi, leksikasi, voqealari, kompozitsiyasida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Erkin Xudoyberdiyevning “Adabiyotshunoslikki kirish” darsligida ham muallif tomonidan “uslubni muayyan asarning butun badiiy tuzilishida namoyon bo‘ladigan g‘oyaviy o‘ziga xoslik sifatida tushunganda, uni o‘sha asardagi yoki ijodkorning butun ijodidagi belgilarning oddiy yig‘indisi deb qarash mumkin emas. Aksincha, uslub deganda tanlangan mazmunni muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatini, o‘ziga xos chatishuvini tushunish lozim”³⁷ligi ko‘rsatiladi.

Taniqli uslubshunos olim Q.Samadov «O‘zbek tili uslubiyati»³⁸ nomli ishining «Badiiy uslub» bobida muallif badiiy uslub ijodkorning mustaqilligi, individualligi belgisi ekanligini konkret dalillar asosida yoritishga intiladi. «Badiiy asarda, - deb yozadi Q.Samadov, - til faqat tashqi belgi-shakl bo‘lib qolmasdan, mazmunga ham dahldor, aniqrog‘i, uni uyushtiruvchi va yorituvchi omil hisoblanadi».

Filologiya fanlari doktori S.Karimov ham keyingi chorak asrdan buyon badiiy asar tili muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ullanib kelmoqda. Uning nomzodlik dissertatsiyasi Zulfiya poeziyasining tili va uslubi mavzusiga bag‘ishlangan edi (1982). Shundan keyin, olim «Zulfiya poeziyasining tili» (1987), «Zulfiya poeziyasi tilining lug‘ati» (1981, muallif: R.Qo‘ngurov) nomli asarni e’lon qildi. S.Karimovning doktorlik dissertatsiyasi «O‘zbek tilining badiiy uslubi» deb nomlangan edi (1994). Olim shu dissertatsiya materiallari asosida «O‘zbek tilning badiiy uslubi» (1992), «Badiiy uslub va tilning ifoda – tasvir vositalari»

³⁷ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008. 322-б.

³⁸ Samadov Q., O‘zbek tili uslubiyati, Toshkent : O‘qituvchi, 1991, 56 b.

(1994) nomli ishlarini yaratdi. Bu ishlarda badiiy uslubning o'zbek tilidagi boshqa funksional uslublar orasi tutgan o'rni va ulardan farqli tomonlari, uning fonetik, grammatik, leksik va frazeologik tomonlari yoritib berilgan. S.Karimov badiiy nutq uslubining bosh xususiyati deb quyidagi uch tomonni inobatga oladi:

- a) til materialini qamrab olish doirasining kengligi;
- b) umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha leksik-grammatik birliklarning hamda o'rni bilan boshqa funksional uslublar elementlarining ishtirok etishi;
- v) bu vositalarning muhim bir vazifaga – estetik funksiyani bajarishga xizmat qilishidir.

Obrazli tafakkur eng serjilo, ta'sirchan va lo'nda shakli bo'lgan she'riy talqinda poetik so'z o'rni o'zgacha. Shoir oddiy so'zlarni muayyan sifatlar yoki iboralar bilan qo'llaganda kutilmagan ma'nolar, favqulotda ta'sirchan, quyma misralar maydonga keladi. Zero, she'rda ipakday mayin, mushki anbardek iforli, xanjardek keskir so'z va ma'no uyg'unligi mujassam. Ma'lumki, badiiy asar tilini poetik tahlil qilishda poetik nutq fikr ifodalashdagi imkoniyatlari o'rganiladi.

Badiiy uslub adabiy ijod namunalari – asarlarning tili, ya'ni, til vositalarining majmuidir. Badiiy uslub badiiy adabiyot bilan chambarchas bog'liq. Badiiy adabiyot insonlar hayotini barcha qirralari bilan qamrab oladi. Shuning uchun adabiyot turli xil kasb egalarining, har xil toifadagi kishilarning fikr-o'ylari, his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi faoliyatini ham to'la aks ettiradi. Aynan shu sababli bu uslubda til vositalari boshqacharoq – o'ziga xos xarakterda qo'llanadi: "Agar nutqning boshqa vazifaviy uslublari faqat u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish uchun xizmat qilsa, badiiy uslub esa bundan tashqari, o'quvchi yoxud tinglovchiga estetik va emotsional ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadi. Demak, estetik ta'sir etish vazifasi badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatidir".

"Uslub ijodkorning voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbida haqiqatni kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual ("o'ziga xos") tarzda yaratish san'ati" ekan, har bir ijodkorning siyrati,

olami-hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go'zallikni ko'ra bilishi, tasavvuri, xayolot dunyosi o'zigagina tegishlidir va ana shu o'zlik uning har bir asarida akslanadi. Ayniqsa, shoirlar qalbida doim turfa tuyg'ular jo'sh uradi. Buloqday qaynab chiqayotgan tuyg'ular o'zga qalblarga ko'chib, ularni ham bedorlikka, o'ylashga, fikrlashga undaydi. Adabiyot ostonasiga qadam qo'ygan har bir iste'dod egasi o'z so'zini va shu aytar so'zini munosib tarzda ifodalash uchun o'z uslubini topishga intiladi. Shunday ekan, ijodkorning badiiy konsepsiyasini, ko'zlagan maqsadini, original poetik obrazlarini namoyon qila olishi, o'quvchiga yetkazib bera olishi uning individual uslubiga ham bog'liq. Zero, "Uslub bu-iqtidorning o'zi..." degan edi buyuk rus munaqqidi V.G.Belinskiy. Ammo, har qanday uslubning mag'zini to'q qiladigan, ustun bo'ladigan mezon bu – badiiy - estetik tafakkur, katta adabiyot maydoniga olib chiqishga loyiq ulug' maqsad-muddao, g'oya va tizginsiz ilhomdir. Atoqli olimimiz U.Normatovning "qanday usul, uslub shaklda bo'lishidan qat'i nazar ijodkor-shoirni qalam olishga undagan, unga tinchlik bermagan, qalbini o'rtaqan cho'g', chinakam ichki bir dard, hayajonga solgan beqiyos ruhiy holat-ilhom haqida gapirish "moda"dan qolayotganday tuyuladi menga. Holbuki, keyingi yuz yillikda yaratilgan "O'tkan kunlar", "Sarob", "Ulug'bek xazinasi", "Qasoskorning oltin boshi", "Tushda kechgan umrlar", "Otamdan qolgan dalalar", "Muvozanat" kabi romanlar shakl-shamoyilidan qat'i nazar, avvalo, ularni ichidan yoritib turgan o'sha yorqin, teran ijtimoiy dard va beqiyos ilhom mahsuli ekani bilan kitobxonlar qalbidan, binobarin, adabiyotimiz tarixidan muhim o'rin olganligiga hech kim e'tiroz bildirolmaydi" degan ta'kidlari uslubni yuksak iste'dod va bu iste'dodga mayoq bo'luvchi ilhom boyitadi, degan da'vomizni isbotlaydi. Ijodkor asarda nafaqat o'z uslubini namoyon etadi, balki o'zi yashayotgan davr va jamiyatga xos xususiyatlarni ham tasvirlaydi. Nazmdagi o'ziga xos tuzilish, obrazlilik, badiiy til ifodasi uslub shakllaridan bo'lsa, tanlangan mavzuga nisbatan shoir konsepsiyasi (munosabati) uslubning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini belgilaydi. Ijodkor konsepsiyasi asarda badiiy tizimga solingan uslub shakllarida namoyon bo'ladi. Demak, ijodkor qo'llagan badiiy uslub shakllari

konsepsiya ta'sirida amalga oshiriladi. She'rdagi qo'llangan uslub shakllarining bir-biriga mantiqan bog'lanishi ijodkor konsepsiyasini mukammal ochib berilishini ta'minlaydi.

Har bir ijodkordagi o'ziga xos badiiy olam, betakror kompozitsion yechim, alohida ohang va ularga uyg'un badiiy til o'ziga xos asarlar yaratishning asosini yuzaga keltiradi. Har bir ijodkor badiiy olami, saviyasi, ijodiy texnikasini shakllantirish, shaxsiyatini barqaror darajaga ko'tarish uchun badiiy ijod qo'lga kiritgan shu kabi natijalardan saboq oladi, o'rganadi. Shu sababdan badiiy adabiyot-tasodifiy individualliklar yig'indisi emas, balki ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan aniqlanuvchi obyektiv jarayon bo'lib, unda turli oqim va tamoyillar kurashi yuz berib turadi. Ijodkorning originalligi ana shu jarayonga qay darajada amaliy aralashuvi bilan ham tayin etiladi.

Vazifaviy uslublarning bir turi sifatida badiiy uslub inson amaliy san'ati, ijodiy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umunga taalluqliligi, jamiyatning barcha a'zolariga tegishliligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Akademik G'.Abdurahmonov badiiy uslubni shunday ta'riflaydi: "Badiiy uslub badiiy adabiyotda, uning turli janrlarida qo'llaniladigan o'ziga xos til ifodasidir. So'zni badiiy asar g'oyasiga, mazmuniga, yo'nalishiga moslab ishlatish badiiy uslubni keltirib chiqaradi".

"Mabodo muallif o'z uslubiga ega bo'lmasa, uning ijodkorligi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Agar uning o'z tili, uslubi shakllangan bo'lsagina ijodkorligiga umid bog'lash mumkin. Asarning nutq tuzilishida badiiy uslubning barcha fazilat hamda xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi"³⁹ – deydi Yo'ldosh Solijonov.

Badiiy tasvir asosan muallif nutqi orqali yaratiladi va bu ijodkor uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ijodkor o'zi yaratayotgan tasvir voqelikning biror qirrasini yoritib oladimi, yo'qmi, keyingi sahifalarda avval qo'llanilgan

³⁹ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq p o'etikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy dаражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

tafsilot hamda dalillarni inkor etadigan, xiralashtiradigan hollarga yo‘l qo‘ymasligi lozim bo‘ladi. Yorqin badiiy tasvir o‘quvchini to‘lqinlantiradi, uni voqealar oqimiga, ehtiroslar olamiga olib kiradi, kishi ko‘z o‘ngida jonli manzaralar, tirik qiyofalarni gavdalantiradi. Aksincha, tasvirdagi sun‘iylik, zo‘rma-zo‘rakilik kitobxonning asarga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Badiiy tasvirning ajralmas qirralari hisoblangan peyzaj, qahramonlar holati, kayfiyati, tasavvurlarini ifodalash muhim hisoblanadi.

Badiiy uslub xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Mazkur uslub ijodkorlarga asarning estetik ta’sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, mohirona tanlash, shuningdek, yangidan yangi ifoda vositalarini yaratish imkonini beradi. Binobarin, til badiiy nutq uslubida obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun badiiy uslub o‘zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublaridan farq qiladi.

«Yosh adibning, ayniqsa, boshlovchi ijodkorning kelajagi haqida uning tiliga qarab hukm chiqarish mumkin. Agar muallifning o‘z uslubi, o‘ziga xos badiiy tili bo‘lmasa undan ijodkor chiqmaydi», - degan edi Chexov. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, badiiy nutq va uslub bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularni bir-biridan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi, nutq ona bo‘lsa, uslub uning farzandidir.

BOB BO‘YICHA QISQACHA XULOSALAR:

1. Adabiyotshunoslik sohasida hali hanuz “badiiy til” va “badiiy nutq” istilohining qo‘llanishi muammoli bo‘lib kelmoqda. Holbuki, bu muammo tilshinoslik sohasida XIX asrda Sossyur tomonidan hal etib bo‘lingan.
2. Biz Y.Solijonov va D.Quronovlarning fikriga qo‘shilgan holatda, badiiy nutq atamasini qo‘llash o‘rinli deb bilamiz. Sababi til unsuri aytilgandan yoki yozilgandan so‘ng nutq hodisasiga aylanadi.
3. Adabiyotshunoslik darsliklarining, deyarli, barchasida badiiy nutqning muhim vazifasi sifatida obrazlilik va emotsionallik ta’kidlanadi.
4. Har qanday badiiy asar o‘z ohangiga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, she’riy asarlarda yaqqol sezilib turadi. Ohangning monologik va polifonik turlari o‘zaro farqlanadi
5. Ijodkor uslub deganda, har bir asarning butun bir tuzilishida (tili, syujeti, kompozitsiyasida), mazmundor shaklida ko‘zga tashlanadigan o‘ziga xos tomonlari tushuniladi. Usul va uslub tushunchalari bir-biridan tubdan farq qilib, usul deganda ijodkor tomonidan barchaga ma’lum qaysidir yo‘sinda asar yaratish tushunilsa, uslub deganda – ijodkorning o‘zi nazarda tutiladi. Uslubda so‘zlarning faqat shu ijodkorga xos “ohori” sezilib turadi.

II BOB. ZULFIYA IJODIDA BADIY NUTQ TURLARI VA SHAKLLARI

2.1. Zulfiya she'rlarida monolog va uning badiiy-estetik xususiyatlari

Har bir badiiy asarda nutq hodisasi to'la ma'noda kuzatiladi. Shuning uchun ham asar tili ijodkor mahoratini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. "Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz muzika bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi"⁴⁰. Ijodkorning o'z oldiga qo'ygan maqsadi nutq orqali ilgari suriladi. Barchaga yaxshi ayonki, o'zbek adabiyoti uzoq va murakkab nutqiy jarayonni boshdan kechirdi. Vaqtlar o'tib, asardagi til masalasi poetika muammosining tarkibiy qismi sifatida o'rganila boshlandi.

Badiiy nutqning monologik va dialogik shakllari farqlanadi. Monologik nutq shakli bir odam tilidan aytilayotgan nutqni bildirsa, dialogik nutq shakli suhbat-muloqot chog'idagi bir necha kishining nutqini anglatadi. Lirik asarlarda monologik nutq, dramatik asarlarda dialogik nutq yetakchilik qilsa, epik asarlarda ularning har ikkisi ham keng o'rin tutadi. Bunda muallif nutqi, asosan, monologik shaklda bo'lsa, personajlar nutqi dialogik shakldadir.

Inson nutqi ko'rinishlari sifatida dialogik nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o'rtasida amalda bo'lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo'ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanishdagi til xususiyatlari va tildan tashqarida bo'lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e'tirof etish singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi.

Bundan tashqari, bu uslublarda grammatik shakllarning adabiy-me'yoriy variantlari qo'llanilsa, aksincha, badiiy uslubda bu grammatik

⁴⁰ Sharofiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy – tanqidiy maqolalar. T., 1989. 64-b.

shakllarning barcha ko‘rinishlari — lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo‘llanilaveradi.

Monologik nutq – so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba’zan bunday nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan matnning ma’lum bo‘lagi xos bo‘ladi. Monologik nutq og‘zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og‘zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o‘rin egallaydi, yozma shaklida esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlarning joylashish o‘rniga bog‘liq.

So‘z san’atkori o‘z xalqining elchisi timsolidir. Xalqning milliy xarakteri, nodir fazilatlar, ezgu tuyg‘u va yuksak orzu-armonlari ijodkorlari, shoirlari orqali boshqa yurtlarga va kelajak avlodlarga yetib boradi. O‘z xalqining zamonlar bilan, turli millat, xalq, elatlar bilan taqdirdosh, yelkadosh ekanligini ifodalab, ilg‘or insoniyatni bir-biriga yaqinlashishiga katta hissa qo‘shayotgan, ularni ezgu ishlarga ilhomlantirayotganlar ham shular. “Zulfiya she’riyati teran fikr va qaynoq hissiyot uyg‘unligidan hosil bo‘lgan, demak, intellektual va psixologik she’riyat, u tahliliy, falsafiy o‘ychan — usti tinch, zamiri nishob, jiddiy, tarang va konkret— manzarali. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o‘tkir dramatik holatni hamda buning eng cho‘qqisi bo‘lgan fojiaiy kolliziyalarni chizadi. U ma’naviy boy, ruhiy tetik, hayotbaxsh va mardona she’riyat. Unda Vaqt va Makon chegarasi, qamrovi keng va yaxlit: voqelik va inson taqdiri kechagi kuni, buguni va ertasi bilan uyg‘unlikda idrok etiladi: Shoira ijodida «xotira»—«taqdirdosh»,

«yuraginga yaqin kishilar» va «kelajak» motivlarning muhim hamda barqarorligi shundan. Shoiri ijodida ko'tarinkilik, baxtiyorlik ohangi bilan fojiaiylik yo'nalishining yonma-yon kelishining boisi ham uning voqelikni zamonni, insonni keng, yaxlit, murakkabligi bilan tahlil etish yo'lidani borishiga bog'liq. Tarixning ham shukuhli xulosalariga, ham achchiq sabog'iga suyanishi yotadi: «Kechmishim yolg'iz bir alifbo — saboqday» deydi shoiri «Kelajak...» she'rida. Shoiri bir she'rida shunday deb yozadi:

*Ne yozsam tub-tubdan hayotga doir,
Insoniy qalbimning tebranishi ul.*

Bu yerda shoiraning ikki bir-biriga tutash ijodiy prinsipiga ishora bor. Biri — shoiraning ilk to'plami bo'lmish «Hayot varaqlari» (1932 yil, Zulfiya bu vaqtda 17 yoshda edi) to'plamidan boshlangan ijodiy prinsip — hayotga, insonlar qalbiga yaqinlik, ya'ni mavzuni, fikrni, tuyg'uni, orzu-armonni shulardan qidirish va ikkinchisi — shu hayot voqelik va insonlar mehnati, kurashi tufayli qalbida tug'ilgan fikr-kechinmani ifodalashdir⁴¹.

O'zbek she'riyatining ko'rki bo'lgan Zulfiya ana shunday ijodkordir. Uning she'rlarida kelajakka bo'lgan umid, o'z taqdiridan rozilik, shukronalik, xalq dardiga sheriklik tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi. Uning monologik nutqda yozgan she'rlarini inson sabr-bardoshiga qo'yilgan haykal deb qabul qilish mumkin. Hayotga muhabbat esa she'rlarining bosh mavzusini tashkil qiladi.

“Zulfiya she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, maqsadi, g'oyasi va ideallarni — pardasini belgilagan narsa ham xuddi shu umuminsoniy fikr va tuyg'ulardir. Uning she'riyatida hayot zavqi ham, yaratish shavqi ham, g'oliblik g'ururi ham, kelajak sururi ham, insonlar baxti ham, oshiqalar ahdi ham, xalqning yovdan, yomonlikdan g'azabi ham, qirg'in urush keltirgan hijron azobi ham, ayolning ulug' toqati ham, chin sadoqati ham, kemptiklik armoni ham, do'stlikning darmoni ham, xullas xilma-xil hayotiy, insoniy tuyg'ular, fikrlar, g'oyalar ifodalanadi. Zotan, Zulfiya ijodining yuragini, haroratini, ruhini

⁴¹ S.Mamajonov.Davr bilan yelkadosh, xalq bilan taqdirdosh she'riyat.T.,1985 4-bet

belgilagan omil ham undagi yuksak, jo'shqin va faol insonparvarlikdir. U butun borlig'ini, joni-tanini tabiat toji bo'lmish insonga bag'ishladi: insoning shodligiga shodlik, baxtiga baxt qo'shish, dardiga sherik, yarasiga malkam bo'lishga intildi, uni oppoq tong sari, porloq kelajak tomon yetaklashga oshiqdi. U insoniyat manfaatiga zid turgan «har nega o'zini qalqon» qiladi, tinchlik, adolat, haqiqat, go'zallikni, ezgulikni ona o'z farzandini qanday ardoqlasa, shunday himoya qiladi; insonlar yuragiga yaxshilik urug'ini sepib, qalb harorati bilan isitib uni ko'kartirmoqchi bo'ladi».⁴² Uning monologik nutqda yozilgan she'rlarida ana shunday g'oyalar aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, uning "O'zimga" deb nomlangan she'rini olaylik, unda lirik qahramon o'zi bilan o'zi muloqotga kirishadi, o'zini ritorik so'roqlar orqali tahlil qilishni istaydi. Hayotda nima maqsadda yashayotganligini topishni xohlaydi:

*Yillar o'tgan bo'lsa undan nariga,
Kimda muqim qolmish o'n sakkiz yoshi,
Katta taqdirimda o'tgan kunlarga
Betakror zeb berdi Hayot naqqoshi.*

She'r to'liq optimistik ruhda yozilgan bo'lib, unda ifodalangan tuyg'ular o'quvchiga ham yuqadi. She'rda hayotdan mamnunlik, rozilik hisi yetakchilik qilmoqda. Bu beg'ubor sof tuyg'ular insonni yana va yana yashashga, o'zidan yaxshilik qoldirishga undaydi. Bunday g'oyalarni uning, deyarli, barcha she'rlarida uchratish mumkin. Adabiyotshunos olim S.Mamajonovning ta'kidlashicha, Zulfiya she'rlarida uch xususiyat yetakchilik qiladi: Baxtiyorlik, fojiiyaviylik va avtobiografizm. Shoiraning mahorati shundaki, u o'z dardini, ichki kechinmalarini xalqnikiga qo'shib yuboradi, xalq dardini esa o'ziniki deb biladi. Shu barcha omillar birgalikda shoira she'rlarining o'quvchi tomonidan sevib o'qilishini ta'minlaydi.

Shoiraning monologik nutqda bitilgan she'rlarida o'ziga xos obrazlardan biri tong obrazidir. Ijodkor tongni sevgan, tongni ardoqlagan, barcha ezgu yumushlarni

⁴² S.Mamajonov.Davr bilan yelkadosh, xalq bilan taqdirdosh she'riyat.T.,1985 5-bet

tong bilan bog‘lagan. Tong timsolida yorug‘lik, orzu, hayot, tiriklikni ko‘ra bilgan.

Bu uning “Mening tongim”, “Muhabbat tongi kulganda”, “Tun”, “Biz tongni sevgan-chun”, “Oftob sen borlig‘im”, “Kelajak”, “Tongda so‘z qudug‘in tubi..”, “Tunni sevmay qo‘ydim”, “Tong”, “O, ertam, eng go‘zal afsonam” kabi ko‘plab she‘rlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, uning “Tun” she‘ridagi quyidagi misralar diqqatga sazovordir:

*Mana, Xulkar qarshimda chaqnar,
Yorqin tongdan keltirib darak.
Tun o‘tadi, yana chorbog‘dan
Ko‘tarilar sahargi tuman.
Men-chi, asta chiroq so‘ndirib,
Otayotgan tongni kutaman.
Ko‘zlarimda erib ketdi tun,
Yoyilmoqda yorqin juvon kun...*

Lirik qahramonning ko‘zlarida tunning *erib ketishi*, tongga *yorqin*, kunga esa *juvon* kabi sifatlashlardan foydalanilayotganligi noyob topilma deyish mumkin. Tong otishi lirik qahramon uchun baxtdir. Tongdan umidi katta, tongga katta maqsadlar boylagan. Shu sababdan tongni intiqlik bilan kutmoqda.

Shuningdek, Zulfiyaning “biz tongni sevgan-chun” she‘rida ham tong ardoqlangan:

*Biz tongni sevamiz — alvon rangida
Kurash qurbonlarin yashaydi xuni.
Qon berib, jon berib butun jahonda
Dastlab qarshilagan biz bo‘ldik uni.*

Yuqoridagi misralardan ma‘lum bo‘lishicha, tongning baxt, yorug‘lik, ezgulik ma‘nolaridan tashqari erk, ozodlik, g‘alaba kabi ma‘nolari ham mavjud. Shu o‘rinda tamaddunning boshlanishi bo‘lmish Sharqqa ham nozik ishora mavjud. Ajdodlar ruhi esa, hamisha, bizga yor!

“Mening tongim” she‘ridagi quyidagi misralarga e‘tibor qilaylik:

*Ona tuproq oromda yotar
Olib tungi risqi-qudratni.
Mening tongim qalbimda otar,
Uydan, ko'zdan haydab zulmatni.*

Yuqoridagi misralar orqali shoira qalb ko'zi ham uyg'oq ekanligi namoyon bo'lmoqda. Zero, she'rda aytilgan har qanday so'z ijodkorning qalbida, ichki kechinmalarida paydo bo'ladi. Aslida butun olam *“oromda yotsa-da”* lirik qahramon o'z qalbi bilan tong yorug'ligini ulashmoqda. *“Uydan, ko'zdan zulmatning ketishi”* bu o'rinda Zulfiyaxonimning otashqalb ijodkor ekanligidan darak berib turibdi.

Zulfiya she'rlarining birida o'z asarlariga *“ma'yusi ham, yorqini ham bor”* deb ta'rif bergan edi. Haqiqatan ham, uning ijodida optimistik ruhda yozilgan, yashash va yaratish zavqi kuylangan she'rlar bilan birga, insonning eng ichki dardlarini, armonlarini kuylovchi, dard, alam bilan yo'g'rilgan she'rlar ham talaygina topiladi. Ikkinchi jahon urushi yillari shoira ijodida bir pog'onaga ko'tarilish davri bo'lib, shu yillarda uning ijodida hijron mativi kirib kelgan bo'lsa, 1944- yilda shoira ijodida haqiqiy fojea sodir bo'ldi, ya'ni Hamid Olimjondan ayrildi. Shu kundan boshlab fojeaviylik ijodida birinchi planga chiqib qoldi. Bu holatdan o'zi ham hayron ijodkor quyidagi misralarni yozadi:

*Baxtiyor sevgini kuylardi sozim,
O'lim xanjariga tegdi-yu sindi.
Hijron faryodiday sovuq ovozim,
Nahot, lirikaning yolqini tindi?*

Asli to'rt satrga jo bo'lgan bu dard, ijodkorni lol qoldirmoqda. Shu damga qadar ijodida baxt, mavzusi yetakchilik qilgan bo'lsa, endi umuman shodlik tuyg'usi she'rlaridan yo'qoldi. O'zi ham ko'plab she'rlari ayriliq hijron mavzusiga bag'ishlnayotganini his qilsa-da, hijron oldida ojizlik qilmoqda.

Bundan tashqari, *“Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh”* she'rida ham hijron mavzusi yetakchilik qiladi. She'r shu qadar mukammal yozilganki, dastlabki

misralarda kontrast sa'natiga guvoh bo'lamiz:

*Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.*

Lirik qahramon o'tgan baxtli damlari, yorining unga tez-tez gul sovg'a qilishini eslashi bilan birga "qabr" so'zi orqali uning vafot etgani endi hech qachon unga gul olib kela olmasligiga ishora qilayotganday bo'ladi. Ammo bu o'quvchini u qadar qayg'uga solmaydi.

*Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
Sening aziz boshingda yolg'iz,
Osmon tiniq edi va lokin,
Parcha bulut yetib keldi tez.*

Yuqoridagi misralar orqali Hamid Olimjonning tabiat farzandi ekanligiga, o'z she'rlarida tabiatni madh etganligiga ishoraday tuyiladi. Bu o'rinda ham antiteza – qarshilantirish san'atidan foydalanish orqali o'quvchi ko'nglida keyingi voqealarga qiziqish uyg'onmoqda. Osmonning tiniqligi, ammo bulutning qayerdandir paydo bo'lganligi o'quvchida o'zgacha kayfiyat uyg'otmoqda. She'rning keyingi misrasida voqealar rivojlanib, so'nggi misraga borganda kulminatsiya darajasiga ko'tariladi, ya'ni she'rning nega bunday nomlanganligi ayon bo'lib, lirik qahramon dardi o'quvchiga ham yuqadi uning qalbini larzaga solidi:

*Ko'kda mening boshimda turib,
Go'yo yuragimda qalqdi u.
Ko'zimdagi yoshimni ko'rib
U ham to'kdi yoshini duv-duv.
Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, senla baxtiyor onlar*

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?!

She'rdagi bulut "jonlantirilib", inson kabi yosh to'kmoqda. Ammo shuncha yig'iga qaramay, yordan sado yo'q. Bu yerda suyuqli yorining o'limiga hali hanuz ko'na olmagan mashuqning iztiroblariga guvoh bo'lyapmiz. She'rdagi o'tmish va hozirgi payt o'zaro qiyoslanib qarshilantirish san'atini yuzaga keltirmoqda, ya'ni lirik qahramon avval qanchalik baxtli bo'lsa, hozir shu qadar g'amli, alamli holatda.

She'rdagi birgina ritorik so'roq shoiraning baxtli o'tmishidan darak berib turibdi.

"Kechir qoldim g'aflatda" she'ri ham yori uchun jonini berishga ham tayyor lirik qahramon holati tasvirlanadi. Bu she'rdagi ham xuddi "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh" she'ridagi kabi lirik qahramonning armoni, o'kinchi, iztirobi tasvirlanadi:

*Ajal degan beshafqatga
Koshki otsam ishqimni,
To'ldirsam ham ko'kni dodga,
Saqlasam men baxtimni.
Koshki edi, so'ngi qo'lingda
Erkalanib bersam jon.
So'ngi nigoh senda qolsa,
Men ko'z yumsam bearmon...*

Lirik qahramonning yagona armoni oshig'ini jonini saqlab qololmagani, uning joniga jon bo'lolmagani, orzusi esa yorining o'rniga o'zining jon berishidir. Chunki bu hayot yorisiz bema'no, rangsizdek tuyiladi. "Koshki" so'zi orqali esa alami, afsusi ifodalanmoqda. "So'ngi nigoh senda qolsa" misrasiga ham ko'plab ma'nolar yashiringan. Xususan, Zulfiya Hamid Olimonning bevaqt o'limini istamagani, uning o'rniga o'zi jonini fido qilishga shayligi, birgalik uzoq umr kechirish, qo'sha qarib yashash niyati borligi, o'limi chog'ida esa Hamid Olimjonni ko'rib vafot etishni xohlamoqda. Armoni shundaki, endi bu narsa unga nasib qilmaydi. To umrining so'ngigiga qadar uning nigohini ko'rmay yashashga

majbur.

Yashash sening haqqing dedim,

Kechir, qoldim g‘aflatda.

Yo‘q edi-ku bo‘lmoq mahrum

Bizning ilk munis ahdda?

Lirik qahramon yorini boqiy deb biladi, bergan har qanday va‘dasini ustidan chiqishiga ishonadi. Afsuski, bu dunyo o‘tkinchi, insonlar esa foni. Ammo, alam qiladigan jihati shundaki, lirik qahramon baxtdan masrur o‘lim xavfini his qilmadi, “g‘aflatda qolib ketdi”. Shu narsa lirik qahramonning bag‘ri o‘rtanishiga sabab bo‘ldi.

Shoira she‘rlarida lirik qahramon bu shoiraning o‘zi. She‘rdagi tuyg‘ulari Zulfiyaga tegishli. Ammo uning ijodida “Quyoshli qalam” dostoni ham borki, unda lirik qahramon shoira emas, balki o‘z she‘r va romanlari bilan o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkor Oybek domladir. Bu dostonida Oybek, Zarifaxonim va Zulfiyaning O‘zbekistonning go‘zal shaharlariga bo‘lgan sayohati tasvirlangan. Dostonida monologik va dialogik nutq shakllarini ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin. Garchi Oybek bu sayohat davomida og‘ir xastalikdan qiynalayotgan bo‘lsa-da, uning qalbi sog‘lom, ruhi tetik obraz sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

— Zarafshon! — Onani, yo sevgilini

Noxos uchratganday adib behad shod.

Uchqur mashinaning tortmay tizginin

Boladay sakraydi tog‘day ulkan zot...

Yuqoridagi misradagi “— Zarafshon!” so‘zi orqali Oybek domla qalbi pok, bolalarcha beg‘ubor, samimiy inson sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muhimi, uning qalb ko‘zi ochiq, u tabiatga oshufta, uning muxlisi. Atrofdagilarning fikri uning uchun muhim emas. U tabiatdan rohatlana oladi, tabiat uning uchun ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Tog‘likdan tushganday to‘kiladi suv,

*Ola chalpoq nurda gavharday yonib,
Keng peshana, yuzga yoyilar kulgu,
Go 'yo ilhom ichdi hayotdan qonib.*

Oybekning tabiat qo'ynida orom olishi, o'zini tabiatning bir bo'lagi deb tasavvur qilishi bejiz emas. Faqat qalbi pok insonlarga shunday o'ylaydilar, tabiatni sevib, undan ilhom oladilar. Xastaligiga tabiat darmon bo'ladi.

*Naq ko 'zim oldida o 'sha qiyofa:
O 'kinch, iztirobli, zahmatkash ko 'zlar
Xit edi so 'zlolmay, Nigohi yona-
Yona menga achchiq haqiqat so 'zlar:
- Bular so 'zlab bergan har bir hikoya,
O 'zi shundoqqina oltinday kitob.
Bunda har ne tubsiz va benihoya
Jafo ham, daho ham, orzu, iztirob.
Aql-u zakovati jahonni tutgan,
Abu Ali Sino, Mahmud Torobiy
Va qancha daholar shu yerda o 'tgan!
Hali ochilmagan tarixning bobi –*

Yuqoridagi misralardan ma'lum bo'lmoqdaki, tabiatning tug'gan farzandi bo'lmish Oybek unda bo'layotgan har qanday o'zgarish, so'zlayotgan so'zini qalbi bilan tinglab his qilib turibdi. Faqat o'zining xasta holi bu tarjimalarni boshqalarga yetkazishga halal bermoqda. "Qush tilini qush biladi" deganlaridek, shoir qalbida kechayotgan o'kinchlar Zulfiyaning qalbiga ham ko'chmoqda. Bu yerda shoir tili emas, iztirobli nigohi hali ko'p narsalar yashirinligini, haqiqiy ijodkor shu narsalarni payqab, asar yaratishdan charchamasligi kerakligini uqtirmoqda. Zero:

*Qayta porlatuvchi iste'dodlar kam?
Juda ko 'p, Zuhroday yorqin iste'dod,
Yurtim nasri, nazmi toza ko 'kida.
O 'tajak umrdan tilamay imdod*

Yozish kerak yonib ijod o'tida!
Ko'rdim: fikrlashdan yorilguday bosh,
Unut papirosni ulab chekkanin.
Moviy tutun ichra munis, ko'makdosh
Xotini daftarga xatlar chekkanin.

Oybek tug'ma iste'dod egasi, u haqiqiy ijodkor! Asl vatanparvar, ma'nan yetuk, barkamol shaxs. U hamisha yaratish zavqida yonadi. Ko'ksidagi yurak, qalbidagi alanga har qanday dardni yengishga qodir. Oybek har nega da'vo topa oladi. Hatto yozishiga falajlik ham to'siq bo'lolmadi. Zarifaxonim tiliga tilmoch qo'llariga qalam bo'ldi. Mana asl muhabbat qanday bo'lmog'i kerak. "Yozish kerak yonib ijod o'tida!" deyayotgan ijodkor baytlar o'tgani sari quyidagi fikrga keladi:

Deydi:

- Yashash kerak daryoday uyg'oq

Doston davomida Oybek yerga, yo'lga, olovga, daryoga, quyoshga o'xshatiladi. Yer kabi mehnatsevar, tinimbilmas, yo'l kabi har qanday holatda ham ijod qilishdan charchamaydigan, olov kabi taftli, daryo kabi uyg'oq, quyosh kabi mehribon ijodkordan barcha o'rnak olsa, arziydi.

2.2. Shoiri ijodida dialog g'oyaviy-falsafiy qarashlari ifodasidagi o'rni

Dialog - nutq shakllaridan biri bo'lib, unda har bir fikr to'g'ridan-to'g'ri suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. Dialog fikrlarning qisqaligi bilan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun eng zarur narsalargina ifodalanadi. Voqealar keng izohlanmaydi. Shu jihatdan ham dialog monologga o'xshamaydi. *Dialog so'roq, buyruq va darak* gaplardan tashkil topadi.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq, *savol-javob*, *buyruq-javob*, *xabar-e'tiroz* kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi *tasdiq*, yoki *inkorni*, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, *o'rta tashlangan savol*, *taklif*, *da'vat*, *biror xabar*, *dalillar* bilan xulosalanadi.

She'riyatda diologik nutqdan nisbatan kam foydalaniladi (Asosan, voqeaband she'rlarda kuzatishimiz mumkin). Shunga qaramay, kerakli o'rinlarda dialoglardan unumli foydalanish ijodkorning mahoratidan darak beradi. Zulfiyaxonimni ana shunday mahoratli ijodkorlardan deb bema'lol atash mumkin. Masalan, uning "Yuragimga yaqin kishilar" nomli she'rida quyidagi satrlar mavjud:

Tanishlarim qancha?

So'rdim o'zimdani.

Menga javob qildi porlagan quyosh:

"Mening nurim kirgan hamma yer tanish,

Baxra olgan jonning hammasi qardosh!"

Yuqoridagi misralardan Zulfiyaning ichki meni yaqqol gavdalanmoqda. Uning bag'rikenglik, insonparvarlikni targ'ib qiluvchi, vatanni sevishtirishga undovchi she'rlari barchaning qalbida mehr-muhabbat olovini yoqib, nur kabi kirib borishi shubhasiz.

Zulfiyaning "Saodatning chet ellik bir xonimga javobi", "Bir bola bor oti Alisher" she'rlari voqeaband she'r hisoblanadi. Ammo ularda sof dialoglar uchramaydi. She'rlardagi dialoglar o'zlashtirma gap holida berilib, ularga javob beriladi. "Saodatning chet ellik bir xonimga javobi" da savol-e'tiroz mazmuni yetakchilik qilsa, "Bir bola bor oti Alisher" she'ri savol-taklif, maslahat mazmunidadir. "Saodatning chet ellik bir xonimga javobi" she'rida geolog bir dehqon qizi chet ellik bir boyvuchcha xonimga e'tiroz bildirib javob yo'llaydi.

She'r juda kuchli ehtiros bilan yozilgan bo'lib, unda halol mehnat orqali vatan oldida o'z burchini bajarish eng oliy mukofot ekanligi go'zal tarzda ifoda etilgan.

Shoiraning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri ham voqeaband she'r bo'lib, dialogik nutqdan foydalanilgan o'rinlar mavjud. Hamid Olimjonning «baxt va shodlik» kuychisi deya sharaflanishi, «O'rik gullaganda» deb nomlangan mashhur she'ri borligini hamda shoir ayni navqiron o'ttiz besh yoshida, ya'ni 1944-yili avtomobil halokatida vafot etganini barchaga ma'lum. Zulfiya she'riyat muxlislariga oradan bir yil o'tib, ya'ni 1945- yili yozgan «Bahor keldi seni so'roqlab» she'ri bilan baxt va bahor haqida jo'shib kuylagan yori – turmush o'rtog'i Hamid Olimjonning hayotini, she'rlarini eslatadi. Shu niyatda tabiatga murojaat qiladi, uni xayolan o'z suhbatdoshiga aylantiradi.

*Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.
«Qani o'sha kuychi, xayolchan, yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?»*

"O'rik oppoq bo'lib gullagani"ni kuylagan yigitni izlab kelgan bahor shabboda bo'lib bog'larni, qir-adir, yashil qirg'oqlarni qidirib chiqqani, izlarini topolmagach, bo'ronga aylanib tog'lar toshlarini qulatib, na'ra tortganini aytar ekan, shoira bu bilan o'z qalbidagi holatni ifoda etadi. Suyukli kishisidan, ikki farzandining otasidan ayrilish, judolik alamlarini ramziy obrazlarda ko'rsatadi. Shoirini topolmay sarson kezgan bahor uning uyiga, yotog'iga kirib keladi. Shoirani so'roqqa tutib qalb yaralarini yangilaydi.

Qanday javob aytay, loldir tillarim.

Ana shunday holatga tushgan shoira bahorni yorining qabriga boshlab boradi. U esa bor haqiqatni anglagach, alamda tutoqib daraxtga, endigina uygʻonayotgan kurtaklarga dardini aytib koʻz yosh toʻkadi. Bu endi shamollar esib, yomgʻir yogʻib turgan holatning ramziy ifodasi. Shu tariqa shamollardan tebranib, yomgʻir suvlarida yuvilgan gul-u rayhonlarning atri olamni tutib, goʻyo bir qoʻshiq kuylayotganday mayin, hayotbaxsh ohanglar taraladi. Demak, lirik qahramonning bahor tufayli qalbida uygʻongan dard, alam-u azoblari oʻsha gullar atridan, yaʼni bahorning bor atrofga goʻzallik, yoshlik, yashillik bagʻishlashidan taskin topib, tarqalib, yorugʻlikka, umid va orzularga yana quchoq ochadi. Shoira shundan soʻng *“Oʻlmagan ekansan, jonim, sen hayot”* deya sheʼrni baland pardalarga koʻtarib, bagʻoyat hayotbaxsh, tantanavor yakun yasaydi.

Hijroning qalbidan, sozing qoʻlimda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam.

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,

Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Sheʼrning ana shunday yakun topishi goʻyoki qishning sovuq, qorongʻu kunlaridan keyin bahor fasli bor tabiatga yorugʻlik, yasharish bagʻishlaganiga oʻxshash qiyosiy, ramziy tasavvur beradi. Shoiraning badiiy mahoratiga, yaʼni ramzlardan, oʻxshatish va jonlantirish kabi sheʼr sanʼatlaridan mohirona foydalana bilganiga qoyil qolasiz.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni boʻlib, sanʼatkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanishi masʼuliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikrni rang-barang boʻyoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratuvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir ijodkor oʻz kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.⁴³

Musayev Q. “Ayajonlarim” komediyasiga tiliga doir mulohazalar// OʻTA,1984. 4 – son . 38 – bet

Shoiraning “Muhabbat tongi kulganda” she’ri ham voqeband shaklda yozilgan bo‘lib, unda dialogik nutq elementlarini uchratish mumkin. Xususan:

*Bulutlarning yorib quchog‘in,
Oy ko‘rsatdi olmos yuzini.
Mag‘rur tashlab yerga nigohin,
Tinglab qoldi yigit so‘zini.
«Xohi inon, xohi inonma,
Sening sevging qilmoqda shaydo.
Bunday yonish begona jonda
Bir o‘chmas o‘t bo‘libdi paydo!»*

Yuqoridagi misralardan ayon bo‘lishicha, yigit o‘z sevgilisiga dil izhorini bayon etmoqda. Bu shunday ishqki, begona jonda olov ham paydo qilishga qodir.

*«U bir o‘tki, seni ko‘rmasam
Iztirobga solar jismimni,
Lol qolaman — axtarib topsam,
Unutaman hatto ismimni.
Xoh inongin, inonma xohi,
Xayolimda kezasan yolg‘iz.
Meni sevgin!»
Yigit nigohi
Sevgi tilar — sukut qilar qiz.*

Ha, bu olov oddiy alanga emas! Qizni ko‘rmasa, jismi iztirobga tushadi, mobodo, qizga nigohi tushsa ismini ham yodidan chiqarishi mumkin. Go‘zal dil izhorini eshitgan qiz sukut saqlamoqda. Sukut alomati esa rizo! Sukut orqali qizlarga xos ibo-hayo namoyon bo‘lmoqda. She’rning nomidan ham ayon bo‘lganidek, bu voqea go‘zal tarzda yakunlandi, ya’ni “muhabbat tongi kuldi”. Ularning muhabbat qissalariga oy va yulduzlar guvohlik qilishdi.

Zulfiyaxonmning Oybekka atab yozilgan “Quyoshli qalam” poemasida ham

diologik nutq yaqqol namoyon bo‘ladi. Poema yozilgan vaqtda Shoir falaj bo‘lib qolgan edi, shunga qaramay, u insonning ijoddan to‘xtamagani, rafiqalari Zarifaxonimning Oybek uchun til va qalam bo‘lganliklari badiiy tarzda ochib berilgan.

—Oybek ishlayapti! – deydi, baxtiyor
Xotini shoirga qiladi imo
Taqqir adibga hamdam etgan yor
Qalamday vafodor, ilhomday zebo.

Dostonda yo‘l obrazidan foydalanilgan bo‘lib, yo‘l Oybek uchun umr, hayot, ijod ma’nolarini ifodalaydi. “Haq yo‘li bir o‘tilgusi” deganlariday har bir inson bu dunyoda o‘z yo‘lini bosib o‘tmo‘g‘i lozim :

*Yo ‘l uzoq, yo ‘l yaqin, boshsiz, so ‘ngsiz yo ‘l,
Biri tor, biri keng, ravon va so ‘qmoq.
Tinglab ko ‘r, qarichi ming ertakka mo ‘l,
Tug ‘ilmoqday farzdir birini o ‘tmoq.*

Zulfiyaxonim Oybek bilan Buxoro safariga chiqishgan. Arkni, minorlarni kezar ekanlar, Oybekning ko‘ziga Ayniyning ruhi ko‘rinadi. Ya’ni Oybek Ayniy ko‘zlari bilan butun borliqni ko‘ra boshlaydi. Ayniy Oybekni qo‘llab-quvvatlab uni yangi asarlar yozishga undaydi:

*O‘ylaydi. So‘ng so‘ngsiz
uchrashuv, bahslar,
Chuqur xotiralar bari jonlanib,
Go‘yo g‘olib Ayniy yozib, shodlanib,
So‘niq Ark ustida etardi parvoz.
Go‘yo derdi: «Mavzu yotar taxlanib,
Yozing, Oybek, qancha yozsangiz ham oz!»*

Dostonning nomiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Quyoshli qalam” deb Oybekning so‘nmas iste’dodi, ijodi, hayot yo‘li va porloq asarlari ko‘zda tutilmoqda. Quyosh yaxshiga ham, yomonga ham bir xilda nur taratgani, otashin

mehri, taftli harorati, har doim insonlarga ezgulik ulashib charchamaslik xususiyatlari Oybekning hozirgi holatiga juda mosdir. Oybek soʻnmas asarlari bilan insonlar qalbiga quyosh kabi ezgulik urugʻini qadashi lozim. Ayniy esa uni xuddi shu vazifaga undamoqda.

“Yurgan daryo” deganlaridek, ular yoʻllarida davom etishadi. Keyingi manzil – Choʻli Malik. U yerda ham ijodkor oʻziga xos xulosalar chiqardi. Bu manzil insonlarining oʻz qoʻllari bilan choʻlni jannatday makonga aylantirgani, inson oʻz nomiga munosib yashayotgani koʻngilga taskin berishi, shubhasiz.

Qaytarkanmiz deydi oʻzicha sekin:

“Navoiy yuragi urib turibdi...

Sanʼatli, mehrli, kuchli odamlar

Choʻldan yulib qurmish jannatday makon

Va yashar mehnatda va saodatda

Munosib oʻz ulugʻ nomiga inson... ”

“Quyoshli qalam” dostonida koʻplab dialoglarga oʻrin berilgan. Xususan, Oybek va Zulfiya, Oybek va Ayniy, Oybek va mezbbon, Oybek va direktor, Oybek va kampir oʻrtasidagi dialoglar shular jumlasidandir. Oybek va Zulfiya oʻrtasidagi dialog ustoz va shogird sifatida kuzatilsa, qolgan dialoglarda Oybekning xalq bilan samimiy suhbatiga guvoh boʻlamiz. Xalqning Oybekni sevishi, xalqimizga xos mardlik, samimiylik, hazil-mutoyibaga ustalik dialoglar orqali namoyon boʻlmoqda:

Noqulay jimlikni koʻtarar mezbbon:

— Olinglar, mana bu «qora janjal»dan

Shoir yana kayfga aytganday shu on

Deydi:

— Oʻzbek xalqi shoir azaldan.

Uzum — «qora janjal», yurak — kabutar.

Sahro — Tollimarjon, qishloqi — Vodil,

Hayotni xayol-la bezab naq zargar

Go 'zallik yaratib kelar ming-ming yil.

Ammo o'lim barchaning boshida bor. “Garchand haqqi edi yashash va yashash” bo'lsa-da, Ajal shamoli Oybekni oramizdan olib ketdi. Biroq, chinakam ijodkorlar aslo unutilmaydi ular avlodlar qalbida abadiy saqlanib qoladi:

Bobojonni dilin tutib mayoqday

Nevaralar boshlar shu yo 'ldan yo 'lni.

Buyuk bu uyquni etarkan ardoq,

«Oybek ishlayapti!» deydi nasllar..»

O'z ko 'rkini ko 'rib tasvirlarida

«Oybek ishlayapti!» deydi asrlar...

Oybekning bizga meros bo'lib qolgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plami “Oybekning hamon ishlayotganligidan dalolat berib turibdi.” Zero, ijodkor qoldirgan ma'naviy meros asrlardan nasllarga o'tib uning umrini abadiyatga dahldor etajak.

Ma'lumki, shoira ko'plab yurtlarda ijodiy safarlar uyishtirib, xalqlarni birlikka, birdamlikka chorlagan, mushoiralar tashkil qilgan. Xuddi shunday uchrashuvlardan biri 1962-yili Qozog'iston diyoridaagi Ko'kchatovda bo'lib o'tadi. Shoira shu munosabat bilan “Ko'kchatov” nomli she'r yozadi. Undagi quyidagi misralarda dialogik nutq bilan bog'liq o'rinlar mavjud:

Ko 'kchatov tavsifin qozoqdan so 'rang,

Mening qalbim ko 'chib, qamashdi ko 'zim.

Nur makri, suv aksi, ishqday moviy rang —

Tabiat quliga aylandim shu zum.

Bu ham kam, yurakka chang solib oshkor,

Bu yer go 'zalligin chiqdi shoiri.

«Ko 'zgu kerak bo 'lsa Oynako 'lni ol.

Bunda sen ko 'rmagan husning bor», — dedi.

Misralarni o'qib, beixtiyor Ko'kchatovni, Oynako'lni ko'rish fikri tug'ilishi, tabiiy. She'r nihoyatda samimiy pokiza hislarga boy. Ozod Sharafiddinovning

qayd etishicha, qozoq shoirining Zulfiyaga Oynako'lni "sovg'a qilgani" uni g'oyatda quvontiradi. Garchand buning imkoni yo'q bo'lsa-da, bu yerda qozoqlarning mardligi, tantiligi, qo'li ochiqligini ko'rsatib turibdi. Xalqlarning o'zaro do'st-inoqligi esa taxsinga sazovar. Xuddi shu yili yozilgan "Balxash oqshomi" she'ri ha shoir va baliqchi o'rtasidagi suhbat dialog shaklida yozilgan. She'rning dastlabki bandlari Balxash ta'rifi bilan boshlanadi. Keyin esa dialoglarga ko'chirma gaplarga keng o'rin beriladi:

She'r tug'ilish oni misol hurkmasin deya qarmoq,

Ardoqli cho'kaman tiz.

«Baliq hali ko'lda suzar, buni ichatur, qo'noq!»

Baliqchi tutar qimiz.

She'r qo'shma vaznda yozilgan bo'lib, dialoglarda jonli tasvirlash uchun qozoqlarning tiliga xos so'zlardan unumli foydalanilgan va har bir so'z qahramon nutqini individuallashtirish, xarakterini ochishga xizmat qilgan. Qozoqlarning sevimli ichimligi qimiz, mehmonni qo'noq deb atashi bunga yaqqol dalildir. Bundan tashqari quyidagi misralar ham qozoqlarning mardligi tantiligini ko'rsatib bermoqda:

«Bu gal to'rga tushgan senga, baxtingdan ko'r, boybeka!»

Men shodman misli go'dak.

Oyli to'lqin go'yo baliq, ortidan dil entikar,

Baxt qanday bizga kerak!

Baliqchi, men — ikki juft ko'z ko'ldan uzmaymiz nigoh,

Oy suvda nurli so'qmoq.

«Baxting adim ekan», — deydi qarmoqni tortib qozoq —

«O'ljang ulkan, ol qo'noq!»

Oddiy baliq ovidan olingan lazzat shoirani baxtiyot qilib, dilini entiktirmoqda. Baliqchining shoiraga boybeka deb murojaat qilishi, senlab gapirishi xuddi qarama-qarshilikni keltirib chiqarganga o'xshaydi. Ammo qozoqlarning urf-odati va baliqchining Zulfiyani o'ziga yaqin olganligi uni

senlab gapirishga undamoqda. Baliqchining :“*Baxting adim ekan*”, degan gapiga javoban shoira quyidagicha javob beradi:

*Iyya, qardosh, baxtim go‘zal, o‘zbek elatim siyoq,
O‘lkam har narsaga boy.
Boyvuchchangni boshlab borib, bizlarga ham bo‘l qo‘noq,
Hadya qilay senga toy...*

Shu o‘rinda, Zulfiyaning o‘zbek xalqi farzandi ekanligidan faxrlanish g‘ururlanish tuy‘gulari bilan birga nafaqat qozoqlar, balki o‘zbeklar ham mardlikda tantilikda qolishmasligi, mehmondo‘stligiga ishora qiladi. “Qo‘noq” bo‘lib borganda toy sovg‘a qilishga va‘da beradi. Baliqchi baliqni Zulfiyaga sovg‘a qilgach, baliq ko‘zidagi mung va jon talab qilayotganini ko‘rib baliqchidan uni suvga tashlab yuborishni ozod yurishi so‘raydi. “men yurtimga yarqiragan toleni olib ketaman”, - deydi.

*Nur so‘qmoqda ko‘rsang bexos yulduz tanli baliqni
Tutma sen qarmoq solib.
«Jahsi, tashla, bizning yurtdan har tun senga aytsin kuy.
Oy-maktubdan o‘qib yur!»
Mehnat, hayot, do‘stlik madhin o‘qimoq-chun oqshom, tun,
Bedor o‘tay bir umr...*

Baliqchi baliq Zulfiya uchun qozoq yurtida madh aytib yurishi uchun suvga tashlashga rozi bo‘ldi. O‘rtalarida bo‘lib o‘tgan suhbat sof samimiy tarzda tasvirlangan. Baliqchining Zulfiya she‘rlarini shaydosi ekanligi asar so‘ngiga borib shoironing pok qalbiga cheksiz hurmat bilan yakunlanmoqda. Endi baliqchi shoironing nafaqat she‘rlarini, balki insoniylikka yo‘g‘rilgan qalbini ham sevib qoladi. Bu asarda mehnat zavqi, hayot shavqi, xalqlarning samimiy do‘stligi oddiy dialoglar orqali ochib berilgan.

BOB BO‘YICHA QISQA XULOSALAR

1. Har bir badiiy asarda nutq hodisasi to‘la ma’noda kuzatiladi. Shuning uchun ham asar tili ijodkor mahoratini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. Nutq ikkiga bo‘lib o‘rganiladi: monologik nutq ; dialogik nutq.

2. Shoiraning monologik nutqda bitilgan she’rlarida lirik qahramon shoiraning o‘zidir. Ularda ijodkorning qalb tug‘yonlari, orzusi, armoni, baxti, o‘kinchi yonmayon tasvirlangani bilan boshqa ijodkorlar asarlaridan tubdan farq qiladi.

3. Shoiraning monologik nutqda bitilgan she’rlarida o‘ziga xos obrazlardan biri tong obrazidir. Ijodkor tongni sevgan, tongni ardoqlagan, barcha ezgu yumushlarni tong bilan bog‘lagan. Tong timsolida yorug‘lik, orzu, hayot, tiriklikni ko‘ra bilgan. Bu uning “Mening tongim”, “Muhabbat tongi kulganda”, “Tun”, “Biz tongni sevgan-chun”, “Oftob sen borlig‘im”, “Kelajak”, “Tongda so‘z qudug‘in tubi..”, “Tunni sevmay qo‘ydim”, “Tong”, “O, ertam, eng go‘zal afsonam” kabi ko‘plab she’rlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

4. Zulfiyaning “Saodatning chet ellik bir xonimga javobi”, “Bir bola bor oti Alisher” she’rlari voqeaband she’r hisoblanadi. “Saodatning chet ellik bir xonimga javobi” da savol-e’tiroz mazmuni yetakchilik qilsa, “Bir bola bor oti Alisher” she’ri savol-taklif, maslahat mazmunidadir. “Saodatning chet ellik bir xonimga javobi” she’rida geolog bir dehqon qizi chet ellik bir boyvuchcha xonimga e’tiroz bildirib javob yo‘llaydi.

5. Bundan tashqari, Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Muhabbat tongi kulganda”, “Quyoshli qalam”, “Ko‘kchatov”, “Balxash oqshomi” kabi asarlari ham dialoglarga boyligi bilan diqqatga sazovardir.

III BOB. ZULFIYA SHE'RIYATIDA OHANGNING O'RNI

3.1. Lirik qahramon va monologik ohang

“Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqelikni so‘zlar vositasida o‘zgalar hissiga, ruhiga va ongiga ta’sir ko‘rsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qolingan har qanday axborot inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuyg‘ularga ta’sir etib badiiy kechinma tug‘diradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga esa bo‘lgan so‘zlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi”⁴⁴. Yuqoridagi fikrlarni Zulfiyaning “Sensiz” nomli she’ridan olingan bir parcha bilan izohlaymiz:

*Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,
Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib.*

*Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg‘uga.
Birov azasida yig‘layman qon-qon,
To‘yida yayrayman o‘xshab ohuga.*

E’tiborli jihati shundaki, ushbu parchada lirik qahramonning yoridan ayrilgandagi holati ko‘z oldimizda yaqqol gavdalanmoqda. Lirik qahramon boshidan o‘tkazgan voqealar endi o‘quvchiga ham ko‘chib, o‘quvchining ham

⁴⁴ Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. –T.: Fan, 2004. 121-bet.

hissiyotlariga ta'sir etmoqda. Yuqoridagi misralarda ifodalangan ibora, o'xshatish, qarshilantirish va hatto, oddiy jumlar ham obrazlilik va emotsionallikni ta'minlagan va badiiy tilda badiiy informatsiya yetkazishga xizmat qilgan.

Lirik asarda tuyg'u va o'ylari tasvirlangan shaxs obrazi lirik qahramondir. U, ko'pincha, shoirning o'zini anglatadi. Chunki lirik asarda ishtirok etadigan asosiy timsol shoirning o'zi bo'lib, she'rda uning o'ylari, sezimlari, tuyg'ulari, kayfiyati namoyon bo'ladi. Nazariy manbalarda lirik qahramon haqida quyidagi fikrlar ilgari surilgan: "Lirik qahramon masalasi lirik she'riyatda hayotni tasvir etish spetsifikasi masalasi. Lirik qahramon xarakteri o'ziga xos markaz bo'lib, obyektiv voqelik lavhalari, kishilarning o'ziga xos obrazlari ana shu markaz atrofida uyushadi. Hamma gap uning originalligi, individualligi, jonlilik va jo'shqinlik darajasidadir. O'quvchi har bir yangi she'rni qo'lga olar ekan, unda qanday yangi mazmun tajassum topgani va qanday yangi g'oya olg'a surilganini bilishga intilish bilan cheklanib qolmaydi, balki ana shu mazmun va g'oya qanday hayotiy xarakter prizmasidan o'tib kelganligi bilan ham qiziqadi. Poetik mazmun va g'oyada lirik qahramonning boy xarakteri, yorqin individualligi aks etmas ekan, she'r ta'sirchanlik, jozibadorlik kasb etolmaydi".⁴⁵ She'riyatda harakat qiluvchi shaxs "men" shoirning lirik qahramoni bo'lib, uning ichki dunyosi rang-barang shaklda u yoki bu tarzda talqin etiladi. Bu fikrlarni asoslash maqsadida shoira she'riyatiga yana murojaat etamiz:

Ishqqa maskan yuragim,

Topib ber, deb qistaydi.

Nima qilay, berahm

— Ruhim seni istaydi.

She'r yetti bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan. Bir qarashda, nihoyatda, sodda, ammo unda lirik qahramonning eng ichki, intim his tuyg'ulari qalamga olinmoqda.. Uning yuragi xuddi yosh go'dak kabi xarxasha qilmoqda. Chunki yoridan bevaqt ayrilgan lirik qahramon endi uni qumsab, azob chekmoqda.

⁴⁵ Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. —Toshkent:Fan, 1979. 258-bet.

To'g'ri, lirik asarlarda ba'zan shoirdan boshqa qahramonlar ham ishtirok etadi. Lekin lirik asarda shoirdan o'zga personajlarning o'y-xayol va kechinmalarini batafsil tasvirlash imkoni yo'qligi uchun ham lirikadagi raqib, rind soqiy, ag'yor va boshqa timsollar lirik qahramon darajasiga ko'tarila olmaydi. Chinakam lirik asarning qahramoni o'ziga xos tabiat, fe'l, kayfiyat, taqdir egasi sifatida namoyon bo'lishi, uning sezim va kechinmalari she'rxonni loqayd qoldirmasligi kerak. Lirik qahramonning quvonchi, g'ami, iztirob-u o'ylari o'zgalarga ta'sir ko'rsata olsagina, u badiiy qiymatga ega bo'ladi. Lirik qahramoni befarq qoldirgan she'r o'quvchining ongiga ham, tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu jihatdan qaraladigan bo'lsa, Zulfiyanxonimning barcha she'rlaridagi lirik qahramonning tuyg'ulari kishiga kuchli ta'sir qilganini ko'rish mumkin. Shoira she'rlarida o'z shaxsiyatining turli qirralarini namoyon etadi. Ularda aks etgan kechinma va sezimlar chin, ifoda go'zal, badiiy til jozibasi bo'lgani uchun lirik qahramon o'quvchini o'ziga tuyg'udosh qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqib, kechinma va o'ylari lirik asarda ifoda etilgan va she'rxonni o'ziga tuyg'udosh qila oladigan shaxs timsolini lirik qahramon deyish mumkin. Lirik qahramon ko'ngil holatini ifodalagani, bevosita "men" nomidan so'lashgani, o'zining eng ichki, muqaddas tuyg'ularini she'rxon bilan o'rtoqlashgani uchun o'quvchiga yaqin va tuyg'udosh bo'lib qoladi. Adabiyotshunoslikda lirik qahramon tushunchasi 1921-yilda rus olimi Y. N. Tinyanov tomonidan kiritilgan. Shoir shaxsi qanchalik yirik, serqirra, uning tuyg'ulari qanchalar samimiy bo'lsa, lirik qahramon tasviri ham shunchalik jonli va serjilo bo'ladi. Shuning uchun ham Zulfiya she'rlarining lirik qahramoni kishi ko'nglini butunlay zabt etadi, o'z holati samimiy va chinligiga o'quvchini to'la ishontiradi.

Buyuk rus munaqqidi V. G. Belinskiy shunday yozadi: "Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg'u ato qilgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi. Poeziya o'zidan tashqari bo'lgan hech bir maqsadni ko'zlamaydi. Bilimdagi haqiqatdek, harakatdagi ezgulikning o'zi

maqsaddir”⁴⁶. Haqiqatan ham, “harakatdagi estetika” nazmning xarakterini belgilaydi. Unda jamiki fazilatlar, ba’zan kamchiliklar botiniy suratni, ijodkor tiynatini, hayot haqidagi eng maqbul qirralarni yaxlitlashtiradi.

Shoira Zulfiyaning “Hijron kunlarida” turkumidagi ko’pchilik she’rlarida ijodkor qalbidagi xilma-xil ziddiyatlarni, keskin to’qnashuvlarni, ba’zan o’z-o’zi bilan olishgan monologik nutqlarni kuzatish mumkin. Ularda subyektiv kechinma umumestetik ruhdan oziqlangani, badiiy tafakkur hayotiy tajribadan o’sib chiqqanligi asosiga qurilgan aql bilan his qilinib, ko’ngil bilan kashf etilgan jihatlar ham borki, bular hech birimizning e’tiborimizdan chetda qolmaydi. Darvoqe, “akademik I. K. Konrad Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o’qib chiqib, ajoyib simfonik musiqa tinglaganday bo’ldim, degan edi”. Shoira Zulfiya ijodiga mazkur ibratomuz mushohadani muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada oydinlasha boradi. Ya’ni “ajoyib simfonik musiqa”ga o’xshash “Sensiz” she’rida qalbning hijrondan o’rtangan intim tashnaligi poetik yaxlitlikda maromiga yetkazib ifodalanadi:

*Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib.
Tobuting boshida cho’kkanimda tiz,
Farzandlar ko’tardi qo’limdan tutib.*

Doimiy kuzatishlar, asl tuyg’ular poetik matn tabiatini yanada mukammalroq aks etishiga zamin hozirlagan. Aslida, lirikada kechinma uch o’lchamli matn tarkibidan iborat: kuzatish, tahlil, baholash. Hisiy idrok ongli ravishda talqin rang-barangligini yuzaga keltiradi. Negaki, teran mushohadaga boy lirik kechinmalar natijada bitta nuqtada o’z tajassumini topadi. Bular poetik axborotning ijodkor shaxsiyatiga nechog’li daxldorligi, shu voqelikning tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan “tuyg’ular realizmi” haqqoniy manzarasining inkishof qilinishida qabarib ko’rinadi. Ijodkor mushohada markaziga yuragidagi orzu-umidlarini qo’yadi. Bir qarashda estetik qadriyat

⁴⁶ Белинский В.Г. Статьи о народной поэзии. М., Художественная литература, 1979 С-187

negizida shaxsiy-intim kechinmalar aks etayotgandek taassurot uygʻonadi, lekin mohiyatiga nazar tashlansa, insoniyat qismatiga daxldor, hamma uchun qadrli va ibratli voqelikni oʻziga xos tarzda dunyoga kelishini teranroq anglash mumkin. Shoir Zulfiyaning juda koʻplab sheʼrlarida bu masalaning real ifodasini kuzatish mumkin.

Shoira Zulfiya estetik olamini poetik yoʻsinda yanada oʻzgacha va betakror yuzaga chiqishida tabiat tasviri – peyzajning oʻrni beqiyos. Chunki intim lirika markazida tabiat hodisalari bilan ruhiyatning erkin parvozi ifodasi birinchi planda tasvirlanadi. Antiteza baʼzan mushtarak tushunchalar zahirida qalb va yurak harorati ziddiyatlarini, tabiiy jarayonning ajralmas halqasini tashkil etadi. Bahor motivi bir-biridan keskin ziddiyatli mulohazalarni poetik butunlikda aks ettiradi. Bahor – taqdir kuzatuvchisi boʻlsa, qish uning mavhum idrok fasli. Xuddi tun va kun birikmasidek yaxlit manzara biri-ikkinchisining yuzaga chiqish sababiyati tarzida namoyon boʻladi:

*Qirlarga ilk chiqqan qoʻychivonlardan,
Qayda shoir, deya ayladi soʻroq.
Barida sukunat maʼyuslik koʻrib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...*

“Bahor keldi seni soʻroqlab” deb nomlangan mazkur xotira sheʼrida yuqorida taʼkidlanganidek, bahor faslining fusunkor qiyofasi lirik qahramon koʻnglida kechayotgan hislarga madad boʻlish barobarida, jamiki mavjud hodisa, predmetlardan “maʼshuq” haqidagi sirlarni ochishga kalit vazifasini oʻtamoqda. Bahor – poetik obraz boʻlib, shoira jonlantirish usuli bilan yaxlit kechinmani idrok qilishga erishgan. Nazmning sirli tabiati ham, aslida, jonsiz narsalarga jon ato etishdir. Shoira Zulfiya oʻzligida “hol tili bilan tillashgandek”. Bunda til tashqi faoliyat munosabati bilan emas, botinan his, sezgi, kechinma, ruhning faoliyat munosabati bilan emas, botinan his, sezgi, kechinma, ruhning fazoviy parvozi bilan munozaraga kirishadi:

Qani oʻsha kuychi, xayolchan yigit?

Nechun ko 'zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko 'klamda sen parishonhol?

Shoira atrofidagi odamlarga emas, tabiatning bir bo'lagi, fasllar nazokati bahorga yukunadi. Bahor ikki oshiqning xayolan visolga yaqinlashtirish maskani. Unda "tole va baxt" simfoniyasi o'z ovozi bilan yangray boshlaydi. Lirik matn poetikasiga daxldor shakliy unsurlar, voqelik yaxlitligi ma'lum qoliplarda tajassum topadi. Poetik qiymati o'ziga xos yaxlitlik kasb etgan mazkur she'rni shoira Zulfiya ijodining mo'jaz javohiri, deya ta'kidlash o'rinlidir.

Shoira Zulfiyaning estetik idroki ba'zan qanchalar jo'shqin bo'lsa, ba'zida o'ta tushkun, biri-ikkinchisiz yashay olmaydigan predmetlardan tarkib topganki, uning haroratini his qilmoq uchun shoira qalb dunyosiga yaqinlashmoq joiz. Chunki lirik matn tabiatida kechinma yotadi. U hayotiy mushohadaning nechog'li samimiy, haqqoniy, ta'sirli, ohangdorlik kasb etishi bilan ma'lum ma'noda tutashib ketadi. Shoira she'rlarini yagona bir sistem olam, yaxlit bir badiiy borliq deb qaraydigan bo'lsak, tabiiy jarayonga jonlantirish har zamonda qo'llaniladigan hodisa emas, u butun borliqni jonli tarzda tasavvur qilganligining shohidi bo'lamiz.

Umuman, lirikada o'quvchi ko'nglini poklaydigan "najotbaxsh ma'no" o'z tajassumini topadi. Shoira Zulfiyaning muhabbat haqidagi manzumalarida hijron vahmi "qizil ip"dek o'tadi. Uni bir ko'zgu deb olib qarasak, teran najotbaxsh ma'nolarni ilg'ab olamiz. Visol tushunchasi shunchaki maishiy mazmun kasb etmay, ilohiy tuyg'ular bilan yaxlitlashadi. Bu mutanosiblik san'atdan olingan haqiqiy estetik zavqdir.

Lirik qahramon shoiraning o'zi bo'lishiga qaramasdan, u turli yoshda turli insonlar tilidan kuylaganligiga guvoh bo'lamiz. Ijodini 17 yoshda boshlagan Zulfiya ijodida dastab mehnatkash, sho'x shaddod qizning ovozi yangraganini eshitamiz. Xususan, 1935-yil yozilgan "Bahor kechasi" she'ridagi quyidagi misralarga e'tibor beraylik:

Shu manzara, shu ajib chaman
Quchog'ida sevinchga botdim.
Oqshom zavqin qonib ichib men
Tog' ortiga oyni uzatdim.

Nihoyatda sodda, ammo 20 yoshli qizning qalbida ruhiyatiga mos tushuvchi ushbu misralardan lirik qahramonning qalbi ko'zguday namoyon bo'lmoqda. Uning qalbi pok muhabbat sevinchga to'la, muhabbat orqali oddiy tabiat manzarasi ham yanada fusunkor, yanada go'zal bo'lib ko'rinmoqda.

Ikkinchi jahon urushi yillarida shoira ijodi bir necha pog‘ona o‘sdi. Endi uning she‘rlarida hijron mavzusidagi she‘rlar salmoqli o‘rin egallay boshladi. Endi she‘rlaridagi lirik qahramon qizlar emas, vafoli , chidamli ayol, sevgilini intiq kutayotgan sabr-bardoshli qiz sifatida gavdalana boshlandi. Salohiddin Mamajonov bu xususda quyidagi fikrlarni bildiradi: “Zulfiya baxtiyor ayollar g‘ururini ifodalovchi she‘rlar, urush boshidanoq xotin-qizlar irodasi va mardligini ochuvchi asarlar yozdi, hatto Hamid Olimjon hayot vaqtidayoq shoira ijodiga hijron motivi kirib keldi va bu motiv "Hijron" she‘rida, "Uni Farhod der edilar" poemasida, Hamid Olimjon tomonidan tahrir qilinib bosmaga tushirilgan "Hijron kunlarida" she‘riy to‘plamida muqim o‘rin tutadi. Agar Zulfiya 30-yillarda yozgan she‘rlarida "Shu hayotda cheksiz quvnoqman, ham shod, shod dildan shodlikni mag‘rur kuyladim", "Jarangli shoirning nag‘masi endi, unda bor na alam, na qayg‘uli zor" ("Oktyabr") deb yozgan bo‘lsa, urush boshlanishi bilan u "Dushman ajal tortib keldi Vatanga, bizning sevgimizga tashladi hijron" deb xalq hayotida sodir bo‘lgan voqeani tahlil etishga kirishdi, hijron motivi orqali irodasi, jasoratini va g‘alabaga bo‘lgan qattiq ishonch tuyg‘usini ifodalaydi. Hatto shoira:

Men sevgan dildorning sevgi yurti bor

Ishq doim erk uchun hijronga rozi.

Bu hijron mangumas, visoli ham bor

Qahraton qishlarnnng bo‘lganday yozi.

deb yozib "hijron mangumas" degan fikrni aytadi. Keyinchalik voqelikning o‘zi va shoiraning shaxsiy hayoti bilan aloqador bo‘lgan hodisaning o‘zi (Hamid Olimjonning fojiali taqdiri) urush boshida aytilgan bu fikrga jiddiy tahrir kiritdi - hijronning mangusi ham bo‘lishi mumkinligini anglatdi. Ammo bizning bu yerda aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz boshqa shoira xalq ruhini o‘ziniki tarzida, o‘zgalarning hijroni, g‘ami va shodligini o‘ziniki sifatida chuqur his etib tasvirlay oldi”.⁴⁷

⁴⁷ Солижонов Й., Замонамизнинг забардаст шоири. Т.: 2008

Zulfiyaning real hijron va ayriliqlar azoblari, dardlari haqida yozganlari allaqachonlar uning tarjimai holining intim doirasidan toshib chiqib ketgan va tor doiraga mutlaqo sig'may qolgan:

Hijronning, faryodning dudlarin to'kdim,

Yuragim so'qildi bo'lak va bo'lak...

Yig'lab kelib, yig'lab ketar odamzot

Libosimday qora she'rlarni yozdim...-

Hijron yurakdan chiqib she'rga ko'chib, ijtimoiy narsaga, ijtimoiy hodisaga aylandi. Urush va urushdan keyingi yillarda millionlab yurak-bag'ri dog'li ayollarning nola-faryodlariga hamohanglik topdi. Zulfiya o'z dardida ularning barchalarining dardlarini olovli so'zlarda ifodalaganday bo'ldi. Ibrohim G'afurov bu haqda quyidagi fikrlarni bildiradi: "Zulfiyaning o'zi ham jumla jahon dardli karvoniga qo'shilib borayotib umuminsoniyat dardini kuylayotganini bildi, buni yurakdan tuydi, bu kuylar qalbining juda nozik chilvir torlariga mangu esh bo'lib qolganligini angladi. Shu anglashida ijtimoiy inson tug'ildi, ijtimoiy inson yuzaga chiqdi. Hatto butun insoniyatning dard-alamga limo-lim she'r so'zini hisobga olganda ham, favquloddaligi bilan ajralib turadigan ifodalar yurak qa'rlaridan otilib chiqdi:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam.

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,

Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Zulfiya nima bo'lsa ham hayotni sevishga, uni ardoqlashga kirishdi. Dastlab ancha hayotning achchiq sinovlari oldida qovurilgan bo'lsa-da, endi nima uchun yashash kerakligi hayotning mazmunini anglab yetdi. Bunda hijrondan ham kattaroq, buyukroq bir narsa bor. Zulfiya katta yurak va katta aql egasi – shu narsani topgan va fikr qudug'idan tortib olgan. Bu matonat, qat'iyat, sadoqat, nazokat, adolat hammasi bir bo'lib jamlangan, insonning borliq mazmuniga

aylangan bir narsa. Uning nomi bor. Lekin bu nomni – bir soʻzni aytish, topib joyiga qoʻyish juda qiyin.”⁴⁸

Zulfiyaning shunday sheʼrlari borki, u endi fazrandiga mehri cheksiz ona ovozi bilan soʻzlay boshlaydi:

Bolaning har dardi — tanning ogʻrigʻi,

Unga tikan kirsa ogʻrigʻi sanda.

Oh, onam! Ayting-chi, ona borligʻi

Xuddi shundaymidi yaralgan ondan?

Yuqoridagi satrlardan onaning nihoyatda moʻtabarligini faqat ona boʻlgandan soʻng sezish his qilish mumkinligi aytilmoqda. Onalik nafaqat mashaqqatli, balki maʼsuliyat talab qilishi uqitilgandek goʻyo. “Oʻgʻlim sira boʻlmaydi urush” ham voyaga yetgan oʻgʻlini urush frontlariga borishiga norozi onaning jarangdor ovozini eshitamiz. Bu ona faqat Zulfiya emas, balki butun dunyo onalarining ovozidan kuylayotgan onadir:

Boʻyi oshib ketdi boʻyimdan,

Bosa olar koʻksiga boshim.

Sevgim koʻrib bergan uyimda,

Oʻsdi mening katta yoʻldoshim.

Orzulari qalbimga ziynat,

Hayotidir koʻzim qorasi.

Oʻkinaman, baʼzida faqat,

Yonida yoʻq uning otasi.

Lirik qahramon – onaning pahlavonday oʻgʻilni oʻstirgani, ammo uning oldida otasi yoʻqligi kontrastni yuzaga keltirgan boʻlib, bu uning yanad taʼsirli chiqishiga sabab boʻlgan. Baxtli kunlarga shukronalik, oʻtmishning qaytarilmasligini soʻrash hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas.

⁴⁸ Gʻafurov I. Mangu latofat. T.: Sharq, 2007 226-bet

Mustaqillik yillariga kelib uning ijodida ko'pni ko'rgan nuroniy shoira ayol siymosi kirib keldi:

*Ajinlar iz solgan keng peshonamni
Istiqbol hayotbaxsh qo'li silasin.
Qatag'on yillari yutgan jigarlar
Dog'ini tortmoqqa toqat tilasin!
Yillar,
Nodir onlar,
Sevgi,
Hijronim,
Dilimni zamzamlab, ketmagan uchib...
Bor bo'lsa beshmi, o'n muxlis she'rxonim,
Yozmoq – baxt qalamim uchini o'pib...*

Bu satrlarni Zulfiya 1994-yilda yozdi. 45- yilda yozilgan yuksak ahdga bu satrlarni qiyos qilib Zulfiyaning inson va ijodkor sifatida kimligi va shaxsiyatining miqyosini anglaymiz. Endi u o'tgan damlarni eslab, o'zini falsafiy tahlil qila oladigan darajaga yetgan. U baxtiyor, chunki orzu qilgan tinch davrlarga yetib keldi.

3.2. Zulfiya ijodida ko‘povozli ohanglar

“Shoira qalb torlaridan chiqqan ohanglar tashqi dunyo – hayot zarblarining aks sadosidir. "Men she'rlarimning bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman" degan Zulfiyaning lirikasi chindan ham ko‘p ovozli, serohang. Ammo bu ohanglarning eng markaziysi va baland jaranglagani, yana alohida ta'kidlayman, – degan edi Salohiddin Mamajonov, – bu – baxtiyorlik, shodlik va hayajon, g‘am-fojiaviylikdir. Shoira she‘rlari to‘g‘risida o‘ylarkan:

Ma'yusi ham, yorqini ham bor,

Tuproq, hayot, yurak bu axir!-

deydi. U yana boshqa bir she'rida ham o‘z soziga murojaat etib "Sen toq emas – ikki torli soz, qo‘sh qanot-la qilasan parvoz", deydi. Garchand shoira bu yerda daf‘atan Hamid Olimjonni ham nazarda tutayotgan bo‘lsa-da, aslida o‘zining ijodiy prinsipini nazarda tutmoqda (Zulfiya Hamid Olimjon obraziga murojaat etib "Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda", deb uning sozini ham qo‘shib chalayotganini ta'kidlagan edi). Hamid Olimjon baxt va shodlik kuychisi edi, shuning uchun uning she'riyatida shodlik ohangi, ko‘tarinki ruh yetakchi edi. Zulfiya o‘z ijodida Hamid Olimjondagi xuddi shu yo‘lni, davom ettirmoqda, Bu uning lirikasining bir qanoti bo‘lsa, ikkinchisi - voqelikni butun ziddiyatlari, fojiaviy tomonlarini ko‘rsatish orqali qahramonlikni ulug‘lashidir. Zulfiya she'riyatidagi fojiaviylikni keltirib chiqargan va chuqurlashtirgan asos esa uning tarjimaiy holiga, shaxsiyatiga ham bog‘liq. Zulfiya she'riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lmish shu avtobiografizm vaznining ustunligidir. Avtobiografik asosning kuchliligi va fojiaviylik ohangining balandligi Zulfiya she'rlarida yana bir o‘ziga xoslikni - voqeaviylikni, miniatyur syujetlilikni keltirib chiqargan”⁴⁹.

“O‘tgan asrning 50-yillari oxiri – 60-yillaridan boshlab Zulfiya she'riyati jahonshumul ahamiyat kasb eta boshladi. Uning "O‘glim, sira bo‘lmaydi urush",

⁴⁹ Зулфия. Асарлар. 1-жилд. Шалола. Т.: 1985

"O'g'irlamang qalam bir kun", "Salom sizga, sulhparvar ellar", "Mushoira" kabi butun dunyo xalqlarining xohish-istagini ifodalagan she'rlari yozildi. Agar L.Qayumovning ta'kidlashicha, "Zulfiyaning bu davr poeziyasi ko'proq falsafiy tus olib" jiddiylilik kasb etgan bo'lsa, O.Sharafiddinovning fikricha, shoiraning xalqaro mavzudagi she'rlari "Zulfiya poeziyasining ufqi benihoya kengayganligini, shoirada jahon xalqlarining taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi kuchaygani"ni ko'rsatdi va bu she'rlar sovuq urush shamoli esib turgan o'sha murakkab davrda dunyo xalqlari "qalblarini bir- biriga bog'lovchi rishtalar vazifasini" muvaffaqiyat bilan bajardi. Olimlar qayd etgan bu fazilatlar 70-80-yillarda bor bo'yi-basti bilan yanada kamolga yetdi."⁵⁰

Shoira ijodida polifonik ohanglarni izlashni davom ettirgan olimlardan yana biri Ibrohim G'afurov bo'lib, u :“Zulfiya taqdirida bir emas ikkita jahon urushi aks etadi. U keyinchalik faoliyatining xalqaro miqyosiga ko'ra ozodlik va tenglik, adolatga intilgan xotin-qizlarning ovozig'a aylandi”⁵¹, –degan fikrlarni bildirgan edi.

Zulfiya ijodi bo'yicha Yo'ldoshxo'ja Solijonov ham salmoqli izlanishlar olib borgan. Olim Zulfiya ijodini o'rganish uzoq yillar olib borilganluga va bundan keyin ham to'xtamasligi haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Ozod Sharafiddinov o'zining "Yillar va yo'llar" nomli fundamental tadqiqotida ham Zulfiya ijodiga ko'p murojaat qilgan. Ayniqsa, shoiraning "O'glim, sira bo'lmaydi urush" she'riga alohida to'xtalib, uni "o'sha yillarda tinchlik mavzusida yozilgan hamma she'rlar ichida eng insoniysi, eng nafisi, eng hayajonlisi" deb baholaydi. Shu bilan birga, shoira she'rlarining yana bir fazilati – o'tkir publisistik mushohadaning insoniy joziba bilan birikib ketganligida ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olimning bu fikri L.Qayumov, S.Mamajonovlarning shoira ijodiga xos publitsistik ohang, voqelik, syujetlilik haqidagi mulohazalari bilan mushtarakdir. Xullas, Zulfiya ijodiga qiziqish, uni turli rakurslar orqali o'rganish sakson yildan

⁵⁰ Солижонов Й., Замонамизнинг забардаст шоири.Ф.: “Фарфона”2015

⁵¹ Ғафуров И., Мангу латофат, Т.:2008

ortiqroq vaqtdan buyon to'xtagani yo'q va bu jarayon hali uzoq davom etadi. Biroq, shunga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligi shoiraaning adabiy merosi oldida hali qarzidor bo'lib qolayotir. Chunki ustoz O.Sharafiddinov ta'biri bilan aytganimizda, shu paytgacha yozganlarimiz "bu ulkan shoiraaning ijodi oldida urvoq ham bo'lolmaydi, uning nafosatini, go'zalligini, fikriy boyligini ko'ngildagidek, o'sha she'riyatga munosib tarzda ochib berolganimiz yo'q. Bu muammoni hal etish mustaqillik davrida yangicha tafakkur bilan maydonga chiqayotgan yosh adabiyotshunoslar avlodi zimmasidagi mas'uliyatli vazifadir."⁵²

Salohiddin Mamajonov Zulfiya ijodida fojeaviylik va shodlik ohangining qorishib ketganiga sabab qilib shoira ijodidagi avtobiografizm vaznining ustunligini ko'rsatadi: "Hamid Olimjon baxt va shodlik kuychisi edi, shuning uchun uning she'riyatida shodlik ohangi, ko'tarinki ruh yetakchi edi. Zulfiya o'z ijodida Hamid Olimjondagi xuddi shu yo'lni, davom ettirmoqda, Bu uning lirikasining bir qanoti bo'lsa, ikkinchisi – voqelikni butun ziddiyatlari, fojiaviy tomonlarini ko'rsatish orqali qahramonlikni ulug'lashidir. Zulfiya she'riyatidagi fojiaviylikni keltirib chiqargan va chuqurlashtirgan asos esa uning tarjimai holiga, shaxsiyatiga ham bog'liq. Zulfiya she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lmish shu avtobiografizm vaznining ustunligidir. Avtobiografik asosning kuchliligi va fojiaviylik ohangining balandligi Zulfiya she'rlarida yana bir o'ziga xoslikni – voqeaviylikni, miniatyur syujetlilikni keltirib chiqargan".⁵³ Haqiqatan ham, 1944-yildagi og'ir judolik natijasida shoira ijodida keskin burilishga sabab bo'ldi. Endi u nafaqat o'zining ovozidan, balki Hamid Olimjonning ovozidan ham kuylay boshladi.

"G'afur G'ulom tashqi olam hodisalarini baholashda shu olamning tajriba va xulosalaridan kelib chiqadi, o'zinikini o'shalarga qo'shib yuboradi, tarjimai holiga doir detallar, holatlar, faktlar, dard-armonlar, fikr-xulosalarni o'zgalarnikiga yedirib yuboradi. Zulfiya esa tashqi olamdagi rang-barang hodisalarning, fikr,

⁵² Солижонов Й., Замонамизнинг забардаст шоири.Ф.: Фарғона,2015

⁵³ Zulfiya , Asarlar,1-jild,Shalola. T:1985 6-7-betlar

g'oya orzu-ideallarning o'z ruhiga, o'z dunyoqarashiga, tarjimai holiga, taqdiriga, istak va ideallariga hamohangligini ko'radi, tinglaydi, oladi va shu tashqi olamni, o'zgalarnikini o'zinikiga qo'shib, omuxta qilib beradi. Zamon, muhit tug'dirgan qalbidagi kechinmalar, ijtimoiy-siyosiy mazmunga molik tuyg'ular, holatlar talqini, ifodasida tipik, umuminsoniy fikr va g'oyalarni ifodalaydi. Zotan, Zulfiyaning o'ziga xos ovozi va uslubi ham uning hayotga, voqelikka o'z tajribalaridan kelib chiqib, o'z nuqtai nazari, o'z qalb o'lchovi bilan baho bergan".⁵⁴

Zulfiya she'rlariga xuddi shu "o'z ruhiy tarixining bir parchasini joylashtira boshlanishidan" uning ijodida keskin ko'tarilish yuz berdi. Shoira boshidan kechirganini, hayotiy tajribalarini, ruhiy tarixini, hissiy holatlarini, qalb zarblarini berish, tahlil etish orqali keng olamga va insonlarning qalb tubiga chuqur kirib bordi. Bu uning Hamid Olimjonning fojiali taqdiri munosabati bilan g'oyat keng va teran ishlanayotgan hijron motividagi she'rlarida, ayniqsa, yaqqol ko'rindi.

“Ulkan iste'dodlarda ichki, subyektiv elementning mo'lligi insonparvarlik alomatidir, – degan edi V. G. Belinskiy. – Bu yo'nalishdan qo'rqmang! U sizni aldamaydi, sizni adashtirib qo'ymaydi. Ular shoir o'zi haqida, o'zining Meni haqida so'zlab turib umumiy narsa – insoniyat to'g'risida so'zlaydi. Chunki insoniyat nima bilan tirik bo'lsa, shularning hammasi uning siymosida ham mavjuddir. Shuning uchun ham uning g'am-g'ussasida har kim o'zining g'am-g'ussasini anglaydi, uning qalbida esa har kim o'zinikini sezadi va unda faqat shoirningina emas, balki ayni chog'da insonni bashariyat olamidagi sirdoshini ko'radi”⁵⁵.

O'zbek she'riyatida porloq tong yulduzi va tong kuychisi Zulfiyaxonim o'z o'rniga ega ijodkorlardandir. Ko'plab she'riy asarlari bilan xalqimiz qalbida, xotirasida mangu qolgan Zulfiya umrining so'ngiga qadar ijod qilishdan to'xtamadi. Xalqimiz Mustaqillikka erishgach, shoira ijodiga yangi mavzu va

⁵⁴ Ғафуров И., Мангу латофат. Т.:Шарқ, 2008

⁵⁵ Белинский В.Г. Статьи о народной поэзии. М., Художественная литература, 1979 С-187

yangi ohanglar kirib keldi. Istiqlool ruhi Zulfiya ijodini yanada yashartirib yubordi. Butun umr qalbining tub-tubida saqlab kelgan orzu-armonlarni baralla aytishga chaqirdi. Mana shunday mukammal, o'lmaz asarlaridan biri "Xotiram siniqlari" dostoni edi. Bu doston shoira 80 yillik yubileyida e'lon qilinganda, adabiy jamoatchilik, olimlar, sakson yoshda ham shu qadar o'tli, alangali doston bitish mumkinmi, deb hayratga tushganliklari bejiz emas.

Ibrohim G'afurov bu doston haqida to'xtalib quyidagi fikrlarni aytadi: "Daxshatli mashinaga qarshi turolmaganlarning qalblari faryodlarga, armonlarga to'lib yotardi... Har so'z, har satrda faryod sasi, armon sasi keladi. Bu ulug' yoshda shunchalar sernavo asar yaratish ajib jasoratdir".⁵⁶

"To'rt akam bor edi, biri biridan ko'rkam, kuchli, mard yigitchalar... yerga ursa ko'kka sapchiydigan akalarim... Ajoyib do'stlar edik... Ba'zan she'rlaringa o'sha shaffof kunlarimning parchalari oqib kiradi. Lekin u bir tomchi xolos, balki bolaligim, uni bezagan yaqinlarim haqida kitob yozish baxti menga nasib etar..." Hulkar Olimjonova shoira bu orzuli armonli ishga to'qsoninchi yilarning boshlarida qizg'in kirishganliklari va ancha voqealarni qog'ozga tushirganliklarini aytadilar. Bu "Xotiram siniqlari" yozilayotgan paytlar edi, Shoira, nihoyat, o'zining uzoq orzu qilgan eng suyukli yozuviga o'tirgandi. Ammo u shiddatdan ayrim parchalargina qoldi, shoira o'zi tug'ilib voyaga yetgan ota-ona, ajdodlar xonadonining tafsilotlariga hayot ekan, juda oz to'xtalgan edi: "Men esa hanuzgacha yozmaganman, lekin yozgim keladi" degan edi Zulfiya buyuk armon bilan, holbuki, "biz ajoyib do'stlar edik", – deydi shoira.⁵⁷

Doston, nihoyatda, kuchli ta'sirchan, har satrining zamirida ma'no yashirin. Doston orqali ijodkor ichki olami yaqqol namoyon bo'ladi. Dastlabki misralar orqali shoira nega shu vaqtga qadar bu asarni yoza olmaganligi, nega endi yozayotganligini uqib olamiz. "Xotira siniqlari" degan nolakor doston tug'ilmas edi, agarda qalb yengilgan bo'lsa, nimtalangan bo'lsa qoraygan bo'lsa... Bu yetuk

⁵⁶ G'afurov I. Mangu latofat. T.: Sharq, 2007. 227-bet

⁵⁷ G'afurov I. Zulfiya siymosi. Maqola. Xurshid Darvon kutubxonasi. 2014

donishmandlik bilan yozilgan va har bir satridan buyuk faryod va buyuk armon saslari otilib turgan doston o'sha zo'ravonlik davrlarida shoirlar o'z qalblarining toza qa'rlariga cho'kib yashaganliklarini ko'rsatadi. U zo'ravon mafkura tazyiq qilib o'tkazgan hurriyatlar – hurriyat emasligi, vatanlar – vatan emasligi, insonparvarliklar – insonparvarlik emasligi, do'stliklar – do'stlik emasligi – bularning bari ostida faqat imperiyachilik g'arazlari yotganligi, eng qabix ishlar baynalmilalchilik niqobi ostida qilinganligini u paytda aqli raso odamlar tushunar, anglar, lekin bu daxshatli mashinaga qarshi turishga o'zlarida kuch topolmasdilar. O'z yuraklarining toza qa'riga cho'kishdan o'zga chora topolmasdilar. Armon... armon... cheksiz armonlar shoirlarimizni o'rtar edi. O'sha ulug' armonlar bo'lmasaydi, shoira Zulfiya saksonni qoralaganda yozgan dostonini shunday satrlar bilan boshlamasdi:

Hurriyat, keldingmi - nahotki kelding...

Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.

Agar oldingi hurriyat – hurriyat bo'lganda, shoir hech qachon o'z dostonini bu ajib "Hurriyat, keldingmi" – degan so'zlar bilan boshlamas edi. U aldanishlar bari shu juda qisqa savol ichra anglanadi. Va u ro'yolar va aldam-qaldam kazzobliklarning bari shu qisqa bir so'roq bilan to'la inkor etiladi. So'roq ma'noga to'la. Juda uzoq kutgan, umidsizlanib bo'lsa ham, lekin bari bir kutgan odamgina shunday so'roqlaydi. Juda uzoq va juda umidsizlanib kutgan odamlargina hali ishonib-ishonqiramay turadi. O'z baxtiga va shunday to'la baxtga erishganidan talmovsiraydi va, albatta, "nahotki kelding..." deydi. Shu oddiygina so'zlarda butun zo'rlangan zamonning ovozi bor, armoni bor, o'kinchi bor, ishonchsizligi bor... Zulfiya birinchi satrdagi "nahotki kelding..." so'zlarini ko'p nuqta bilan yakunlaydi. Bu ko'p nuqta hissiy cheksizlikni anglatadi. Tubi ko'rinmas qalb qa'rlariga ishora qiladi. Ma'no ko'p. Barini anglatish mushkul. Ko'p nuqta esa anglatish g'oyatda qiyin bo'lgan ma'no tovlanishlarini ham o'z ichiga oladi va shu bilan birga o'tmish erksizlik yillari, ularning og'ir tajribalari sari qulaydi. Lekin Zulfiya "pinhona kutdim" deganda, ko'p nuqta qo'ymadi. So'zni keskin tugallaydi.

Bu yerda samimiyat xuddi mana shu keskin va qat'iy qo'yilgan nuqtada. E'tirofning qudrati ham shu nuqtada.

E'tirof chog'i har narsa samoviy teranlik kasb etarmikin? Zulfiyaning bu dostonining har bir satri e'tirof va samimiyatning qudrati bilan bitilgan, Zulfiyaning she'ri, ayol taqdiri haqidagi so'zi dunyoning yuragidan o'tdi va juda ko'p odamlar qalbida aks-sado topdi. G'afur G'ulom: "Muazzam Sharq namoyondir sening pokiza joningda" deganida naqadar haq ekanligini anglash qiyin emas.

Bu satrlarda lirik qahramonning uzoq kutgan narsasiga ishonqiramay turgani va bu narsasi qalbida butun umri mobaynida ardoqlab saqlab kelayotgan orzu-armonlarining ro'yobi ekanligini anglaymiz. Bu orzu-armonlar esa "Qo'rquv kalxatlari tegib sindirgan –Yodim siniqlari"ga aylangan edi.

Shoira doston orqali o'sha davrda yashagan insonlarning haqiqiy qiyofasini ota-onasi timsolida tasvirlashga urinadi va buni mahorat bilan uddasidan chiqadi. Masalan, onasining tasvirida quyidagi satrlar bor:

Bu onam – tangrining baxtli onida

Ayri ixlos bilan yaratgani chin.

Qarog'ida mehr shamlari yoniq –

Gullagan o'rikday orasta otin.

Dunyodagi eng aziz insonimiz, bizning bu dunyoda mavjudligimizning sababchilaridan biri bo'lgan ayol – onamizdir. Onalik baxtiga muyassar bo'lgan insonning qalbi mehrga limmo-lim bo'ladi. Qalbimizning ko'zgusi bo'lmish – qarog'imizda esa hamisha mehr tovlanib turadi. Bu o'xshatish barcha ijodkorlarda mavjud, ammo bu yerda birinchi marotaba ona "gullagan o'rik"ka o'xshatilmoqda va bunga qo'shimcha tarzda orasta otin so'zlari ham yonma-yon kelmoqda. Bu yerda yuz-u ko'zlari nafosatga to'la, oppoq ro'mol o'ragan ma'suma ayol ko'z oldimizda jonli gavdalanmoqda. Barcha onalar ham shunday emasmi?!

... Buncha chidam qaydan – po'lat, olovdan,

Metindan yaralgan jonmidi otam...

*Otash og‘ushidan topib bizga non,
G‘amga ham chidamli bo‘larkan odam.*

Yuqoridagi sartlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, go‘yo shoira otasining temirchlik kasbiga ishora qilayotgandek tuyiladi. Aslida otasi shunday qiyin kunlarda ham qaddini bukmaganligi, tishini-tishiga tishlab farzandlari, oilasi uchun barcha narsaga chidaganligi anglashiladi.

*Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko‘rmadik ko‘zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.*

Farzand azob chekkanda ota-ona ikki karra ko‘proq farzandi uchun azob chekadi. Qalb azob cheksa-da, ko‘zda bir tomchi yosh yo‘q. Shuning uchun yuqoridagi misrada “Metindan yaralgan jon” deya ta’riflanmoqda. U yosh ham to‘ka olmaydi, yovga ham tosh ota olmaydi, chunki o‘g‘lining eson-omon qaytishidan umidvor. Ota-bobolarimiz ham barchamizni shunday tarbiya qilganlar-ku: “Dard kelganda sabr qil”. Bu o‘zbekona mintalitet, o‘zbekona e’tiqod namunasi emasmi?! Shundan so‘ng lirik qahramon o‘z fikrini aytadi:

*... Sabr, qanoatdan yaralgan elim,
So‘qir ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku!*

Birinchi misrada shoira elim deb nido qilib, nahot shunchalar ko‘r bo‘lganmiz kabi tag ma’no ostidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi. Sababi, shoira xalq kurash o‘rniga jim yurishni, sabrli bo‘lishni afzal ko‘rdi. Keyingi bandda shoira xalqni uyg‘otishga kurashga chorlagan mard, fidoiy insonlarning qismatini qistirib o‘tganligiga ham guvoh bo‘lamiz:

*Norg‘ul o‘g‘illaring qirildi qushday
Sibirning nur tushmas o‘rmonlarida.
Sen esa yasharding misoli tushda
Turtinib g‘ofilik tumanlarida.*

Ha, shoira bu jimlikning sabrlilikning sababini endi topdi. Bu misralar orqali shoira ko'ra bila turib, xalqning qo'lidan hech narsa kelmayotganligini badiiy tarzda bayon etmoqda. Chunki yurt "G'ofilik tumani" bilan qoplangan. Bundan keyingi misralar esa yuqoridagi fikrning yanada rivojlanganligiga guvoh bo'lamiz:

*Onam qo'llarida mushtdek tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni "siz"lab.*

Chunki zamon notinch, farzandlar ularning qo'lida. Shu tarzda ular bizni o'ziga qaram qilib olishgan. Zamonni "siz"lashga majbur etishgan...

She'ning so'nggi qismi esa shoiraning bu kunlarga yetkazganiga shukronalik quvonch sifatida yangraydi. Chunki bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor:

*Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,
Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar.
Vaqt yetsa shu xalqqa qolar daftarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...*

Oxirgi misra esa endi o'lsa ham armoni yo'qligi ma'nosi yanglig' yangraydi:

Ruhim u yoqlarda qush bo'lib uchar...

"Hurriyat, kelding-ey" deganda birgina "-ey" yuklamasi uni naqadar sog'inib, qumsab, intizor kutganligidan dalolat berib turibdi. Zulfiyaxonimning "Xotiram siniqlari" dostoni badiiy jihatdan mukammal asarlaridan biri bo'lib, avtobiografizm ruhida yozilgan. Shunga qaramay, she'rda ota-onasi, akalarining timsollari orqali butun xalqning xarakteri, xususiyatlarini ochib bera olgan. Ushbu doston o'tmishdagi qora kunlar, necha-necha zabardast, alp o'g'lonlarning bevaqt o'limi va shuning evaziga qiyinchilik bilan qo'lga kiritilgan hurriyat tantanasi sifatida yangraydi. Eng e'tiborli jihati shunda ediki, shoira bu asarni yozish uchun uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rgan, uni qalbida pishitib yurgan. Bundan tashqari, dostonning hayotiyliigi uni yanada ta'sirchan qilgan.

Shoira ijodining boshidan to hozirgacha hamma narsada uning ikki tomonini, ya'ni baxtda uning zidi bo'lmish baxtsizlikni, quvonch bilan birga g'amni idrok etadi. Shu ikkilik uning lirikasining fojiaiy asosi – bosh kolliziyasini belgilaydi.

U hatto bir she'rida adabiy ijod parragini aylantiruvchi kuchni shunday ta'riflaydi:

Dardsiz tiriklik ham yo'q.

Faqat bo'shliqqina bedard, beozor.

Tashvish va shodliksiz ular-ku qo'shiq.

Shoir qalbi kuysiz – bastakorsiz tor.

Lekin bundan shoira shu ikkilikning boqiy, muqim bo'lishini istamaydi: baxt boqiy bo'lsin, baxtsizlik bo'lmasin, tinchlik bo'lsin, urush yo'qolsin, hayot, tiriklik bo'lsin, o'lim, hijron bo'lmasin degandek ma'noni uqish mumkin. Shoiraning hayotni, voqelikni ikki tomoni bilan bir butunlikda ko'rishi va badiiy talqin qilishi – ikkilik prinsipi xuddi shu oliy tilak uchun xizmat etadi. Aslida shoira hayotda, inson taqdirida kemptiklik, yakkalik bo'lishini mutlaqo istamaydi, butun borlirini inson uchun tugal, bir butun va boqiy baxt bo'lishiga erishishga qaratadi.

Shoira ijodida yana bir muhim, ahamiyatga molik bir asar borki bu – "Mushoira"dir. Bu dostonni tinchlik uchun, birdamlik uchun qo'lni qo'lga bergan shoirlarning hamjihatligii poemasi deb atash mumkin. Unda butun dunyo shoirlarining yangroq jarangdor ovozi eshitilib turadi. Olim Solijonov Yo'ldoshxoja bu dostoniga shunday ta'rif beradi: "Mushoira" nomli mashhur asarida Zulfiya umuminsoniy fikrni – katta Sharq mamlakatlari qalbining "bir ulkan qalb bo'lib" birlashib " haqiqat va nurga intilishini" kashtachi palak tikkandek go'zal va bejirim tasvirlaydi"⁵⁸.

"Hamma yerda bo'lgini, hamma narsani kurgini, his qilgini keladi, – deydi Zulfiya, – Afrika birdamligi komitetining yoki ijodkorlarning vakilimisan, xotin-qizlar komitetining vakili bo'lib borasanmi, avvalo, shoirsan. Dunyoga, voqealarga va odamlarga shoir sifatida yondashasan. Shuning uchun "Mushoira" yozildi, bu

⁵⁸ Солижонов Й., Замонамизнинг забардаст шоири.Ф.: Фарғона,2015 - 27-bet

she'r menga shuning uchun muhimki, u hamma safarlarimdan olgan eng qimmatli tuhfamdir", – degan edi Zulfiyaning o'zi. Ammo shoira shu millionlab kitobxonlarni qiziqtirgan fikrni, haqiqatni ayol qalbi qonidan yasalgan siyohda ifodalaydi. "Mushoira"da shoira avval shoirlar yig'ilgan joyga e'tiborni tortadi. Uy, xona ayol qalbiga eng yaqin narsa: shu uyni sevadi, uni ko'z qorachig'idek asraydi, unga insonni ona yer uchun voyaga yetkazib beruvchi muqaddas dargoh deb biladi. Shoira, avvalo, shu "mango nusxa ajoyib chodir"ni ko'radi, so'ngra tabiat tasviriga o'tadi. Zulfiya gul va bulbulni doim ardoqlaydi, ularni sevgi-sadoqat, tiriklik ramzi sifatida talqin qiladi. Bu she'rda ham "gullar bo'yini olib kelgan shabboda, hind qizi kuyi, anvoyi qushlar kuyini" tinglaydi. So'ngra davra tasviriga o'tganda "O'zbek supasiday sahnada gilam", "chiroqda yonardi go'yo kamalak", degan obrazlarni ishlatadi. "Keksa-yosh ota-yu farzandday yaqin" iborasini ham faqat ayollar ishlatadi. Zulfiya shoirlar birdamligi tuyg'usini oddiy turmush detalida – "o'zi bir dunyo" bo'lgan poyafzallarning yonma-yon turishini tasvirlash orqali ham ta'kidlaydi. Keyin shoira she'r o'qiyotganlarning qalbi, ko'ziga, sochiga nazar tashlaydi va "daryoday oqqan ko'z yoshida", "iroda va umidida" Osiyo va Afrika xalqlarining ayanchli ahvoli, mushkul taqdiri, ozodlik, haqiqat yo'lidagi qahramonona kurashi va ertangi porloq kuniga ishonchini o'qiydi, tuyadi. Keyin "jasur jaranglagan onalik dili"dagi dard-tashvishlarga diqqatni tortadi:

Qo'shiq-chi

Goh kurash,

goh qiz sevgisi,

Goh ko'kdan non kutib ko'r bo'lgan nigoh,

Goh go'dak kulgisi, goh banan isi,

Surmali ko'zlarning nozi bo'lib goh;

Goh bo'g'iq haqiqat dod, hayqirig'i,

Gohi yulduz kabi yiroq, yorqin baxt.

Qullikka sanchilgan g'azabning tig'i,

Goh erk tantanasi bergan adolat -

Osiyo, Afrika kartasi bo'lib
Hayot alamiga, baxtiga to'lib.
Kirib kelar edi dildan dillarga.

Zulfiyaxonimning shoir ovozi yer yuzida tinchlik-omonlik tilagan barcha sofdil kishilarning ovoziga hamdam, hamnafas yangraydi. U doim katta nafas bilan ijod qildi. Jahon shoirlarini she'riy musobaqaga chorladi. Mushoiralarda ozodlik g'oyasi yetiladi deb e'tiqod qildi. Dunyo shoirlari uning ovozini eshitdilar. Zulfiya she'rining tiniq chiroyi atrofiga jahon shoirlarining go'zal she'rlari jam bo'ldi.

Hayot bilan hamnafas shoira mustaqillik va tinchlikni bebaho ne'mat sifatida qadrlab, urush sira bo'lmasligini istaydi. "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" deya baralla kuylaydi:

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Biz bu yerda faqat Zulfiyaning emas, balki butun dunyo onalarini ovozini eshitamiz. Birinchi misra xuddi qarg'ish, duoyi ba'dga o'xshaydi. Chunki urush ona va farzandning ko'nglini armon, alam bilan to'ldirgan. Sababi uyda ota yo'q. bu o'rinda ota ulug'lanib uning inson hayotidagi o'rni nechog'li qadrli ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan. Garchi ushbu misralar urush yillaridagi insonlar hayotini, ular qalbiga solgan so'ngsiz alamlarni ifodalagan bo'lsa-da, ammo bugungi tinch zamonni qadrlashdek buyuk ne'matni yana bir bor yodga soladi va shukronalik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etadi.

Zulfiyaxonimning lirik merosi boy va rang-barangdir. Unda ijtimoiy voqelik, insoniy munosabatlar, insonning qalb tug'yonlaridan tortib, o'zbek ayolining bukilmas irodasi, yashashga, hayotga, insonlarga bo'lgan cheksiz muhabbati, vafo-yu sadoqati kabi pokiza tuyg'ular tarannumini ko'ramiz. Eng muhimi, u o'lmas asarlari bilan insonlar qalbida mangu qolajak!

BOB BO'YICHA QISQA XULOSALAR

1. Shoiralarida o'z shaxsiyatining turli qirralarini namoyon etadi. Ularda aks etgan kechinma va sezimlar chin, ifoda go'zal, badiiy til jozibasi bo'lgani uchun lirik qahramon o'quvchini o'ziga tuyg'udosh qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqib, kechinma va o'ylari lirik asarda ifoda etilgan va she'rxonni o'ziga tuyg'udosh qila oladigan shaxs timsolini lirik qahramon deyish mumkin.
2. Zulfiya she'rlarida sho'x, mehnatsevar qiz, sabr-bardoshli yor, yoridan ayrilgan ayol, farzandiga mehri cheksiz ona, nuroniy ayol, shoiralar obrazlari lirik qahramon bo'lib keladi.
3. Zulfiyaning lirikasi chindan ham ko'p ovozli, serohang. Ammo bu ohanglarning eng markaziysi va baland jaranglagani, bu - baxtiyorlik, shodlik va hayajon, g'am-fojiaviylikdir.
4. "Mushoiralar" orqali butun dunyo shoirlarini birdamlikka, tinchlik uchun kurashga chorlagan bo'lsa, "Xotiram siniqlari" dostoni orqali o'tgan umr sarhisobi, mustaqillikka tashna qalblar nidosi o'laroq yangraydi.

UMUMIY XULOSALAR:

1. “Badiiy nutq” va “badiiy til” istilohlarining adabiyot sohasida birdek talqin qilinayotgani hali hanuz muammoli masala bo‘lib turibdi. Bizningcha, “Badiiy til” tilshunoslikning, “Badiiy nutq” esa adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lmog‘i lozim.
2. She‘riyatga musiqa ilmidan kirib kelgan ohang tushunchasi hamisha bir-birini to‘ldirib turuvchi vositalar hisoblanadi. Ohangsiz she‘r dardsiz muhabbatga o‘xshaydi. Ohangni esa obrazlilik, emotsionallik, zargarona tanlangan so‘zlar beradi.
3. “*Uslub*” arab tilidan oigan bo‘lib, “*tartib*”, “*yo‘sin*”, “*shakl*” degan ma’nolarni anglatadi. Uslub bu – asli ijodkorning o‘zidir. Shoir yoki yozuvchini boshqa ijod ahlidan ajratib turuvchi, qaysidir asarlarining qaysidir xususiyati bilan qalbga kirib borishiga majbur qiluvchi – uslubdir.
4. Zulfiyaning ijodi teran fikr va qaynoq hissiyot uyg‘unligidan hosil bo‘lgan, ma’naviy boy, ruhiy tetik, hayotbaxsh va mardona she‘riyat. Uning she‘rlari qalbning nozik torlarini yuqori pardalarda cherta olishi bilan ajralib turadi.
5. Shoiraning monologik nutqda bitilgan she‘rlarida o‘ziga xos obrazlardan biri tong obrazidir. Ijodkor tongni sevgan, tongni ardoqlagan, barcha ezgu yumushlarni tong bilan bog‘lagan. Tong timsolida yorug‘lik, orzu, hayot, tiriklikni ko‘ra bilgan.
6. Zulfiyaning “Saodatning amerikalik xonimga javobi”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Muhabbat tongi kulganda”, “Quyoshli qalam”, “Ko‘kchatov”, “Balxash oqshomi” kabi asarlarida ham dialogik nutqdan unumli foydalanilganiga guvoh bo‘lamiz.
7. Shoir Zulfiya estetik olamini poetik yo‘sinda yanada o‘zgacha va betakror yuzaga chiqishida tabiat tasviri – peyzajning o‘rni beqiyos. Chunki intim lirika markazida tabiat hodisalari bilan ruhiyatning erkin parvozi ifodasi birinchi planda tasvirlanadi. Zulfiyaning ijodidagi muvafaqqiyat shundaki, u

bir asarning zamiriga ustalik bilan Baxtiyorlik va Fojeviylik ohangini singdirib yubora olish qobiliyatiga ega edi. Bu esa uning yuksak ijodkorona mahoratidan darak beradi. She'rlarida fojeaviylik ruhi bilan birga nekbinlik ruhi hamohangdir.

8. Zulfiyaning jo'shqin falsafiy she'riyati yildan yilga sayqallanib o'sib boradi. Dastlab qizlar ovozidan kuylagan shoira bora-bora butun xalq, butun dunyo ahli ovozidan kuylay boshlaydi.
9. Shoiraning polifonik ohang yaqqol ufurib turuvchi asarlaridan "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'ri butun dunyo onalarining urushga qarshi turishiga, "Mushoira" orqali esa butun dunyo shoirlarini birdamlikka, tinchlik uchun kurashga chorlagan bo'lsa, "Xotiram siniqlari" dostoni orqali o'tgan umr sarhisobi, mustaqillikka tashna qalblar nidosi o'laroq yangraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Маънавият, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi / Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust. – 153-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi / Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr. – 258-son
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2016

II. Ilmiy-metodologik va ilmiy nazariy adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. –Тошкент, Фан, 1979.
2. Аристотел. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2011.
3. Жўраев Х. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Мамажонов С.Сайланма. Т.:Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1981
5. Мамажонов С. Давр билан елкадош, халқ билан тақдирдош шеърят.Зулфиянинг “Шалола” асарига сўзбоши. – Тошкент:Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1985

6. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
7. Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
8. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Маънавият, 2010.
9. Қуроноф Д. Адабиётшунослик назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018.
10. Қуроноф Д., Мамажоноф З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Академнашр, 2009
11. Қўнғуров Р., Бегматов Е., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент: Маънавият, 1992.
12. Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.
13. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ наشري. 1975.
14. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
15. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: Фан, 2004.
16. Солижоноф Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. Т. А. Навоий номидаги Ўзбек миллий кутубхонаси наشريёти, 2009
17. Солижоноф Й. Назарий поэтика. Маърузалар матни. – Фарғона, 2017.
18. Солижоноф Й., Замонамизнинг забардаст шоири. – Фарғона: Фарғона наشريёти, 2015
19. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
20. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002.
21. Хализев Б.Э. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2002.
22. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент, 2008.
23. Яссавий А. Девони ҳикмат. (Иброҳим Ҳаққулов ёзган сўзбоши) – Тошкент: Гофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 1991.

- 24.Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи.1981.
- 25.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.
- 26.Ғафуров И., Мангу латофат – Тошкент:: Шарқ, 2008.

III. Adabiy jurnal va gazetalar:

1. Алдашева Ш. Поэтик шакл ва ижодкор индивидуаллиги// Ўзбек тили ва адабиёти.2013.2-сон.
2. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси // Тил ва услуб масалалари. – Тошкент, 2008.
3. Сиёев С. Сўз қадрини билмаган/ Ўзбек адабиёти ва санъати, 1997 йил 11 апрел №15
4. Йўлдошев Б. Зулфия шеъриятида айрим фраземаларнинг қўлланиш хусусиятлари ҳақида//Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Андижон – 2015
5. Ғафуров И. Зулфия сиймоси. // Хуршид Дарвон кутубхонаси. 2014
6. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати,1986.

IV. Диссертация ва авторефератлар рўйхат

1. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари док... дисс... автореф. – Тошкент, 2002.
2. Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърияти мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс... автореф. – Тошкент, 2001.

3. Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс... автореф. – Тошкент, 2012

V. Адабий-бадий асарлар рўйхати

1. Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. – Тошкент: ТДПУ, 2001.
2. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
3. Қобул Н., Олимжонова Ҳ. Яна баҳор келди сени сўроқлаб. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2015.
4. Зулфия. Асарлар: 3 жилдлик. 1-жилд: Шалола. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.Тошкент. 1985.
5. Зулфия. Асарлар: 3 жилдлик. 2-жилд: Мушоира. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.Тошкент. 1985.
6. Зулфия. Асарлар: 3 жилдлик. 3-жилд: Камалак. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти .Тошкент. 1986.